

***ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI***

***“Davlat va huquq nazariyasi” fanining
“Davlat nazariyasi” bo’limi bo’yicha
uslubiy qo’llanma***

Samarqand 2012 yil

UDK:34:321 (575.1)

BBK: 67.3 (5Uz)

D14

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti O'quv uslubiy kengashining qaroriga ko'ra nashrga tavsiya etildi (2012 yil -----, -sonli bayonnoma).

Sadikova Yo. Davlat va huquq nazariyasi. (Davlat nazariyasi).
Uslubiy qo'llanma.
– S.: SamDU, 2012. - 64 b.

Tuzuvchi: yu.f.n. **Yo. S. Sadikova**

Mas'ul muharrir: TDYUI “Davlat va huquq nazariyasi” kafedrası
professori, yu.f.d. **Z. M. Islomov**

Taqrizchilar: yu.f.n., dotsent **S.S.Niyozova**
yu.f.n. dotsent **M. Qo'ldoshev**

Mazkur uslubiy qo'llanma “Davlat va huquq nazariyasi” fani o'quv kursining dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda “Davlat nazariyasi” bo'limida o'tiladigan mavzularning asosiy maqsadi, mazmuni, ta'lim berish texnologiyasining modeli, seminar, mashg'ulotlar rejasi, ta'lim berish usullari, ta'lim berish shakllari, ta'lim berish vositalari o'z ifodasini topgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma oliy yuridik o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalariga mo'ljallangan.

Fanning o'quv dasturi

Kirish

O'quv dastur davlat va huquqning kelib chiqishi, davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari, davlat funksiyalari, davlatning shakllari, davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmi, ijtimoiy munosabatlar va huquq, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq normalari, huquq shakllari (manbalari), huquq ijodkorligi, huquq tizimi, huquqiy munosabatlar, huquqni amalga oshirish, huquq normalarini sharhlash, yuridik amaliyot, huquqiy hulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, huquqiy tartibga solish mexanizmi, qonuniylik va huquqiy tartibot, hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizim va oilalari, davlat va huquqni rivojlanish istiqbol va yo'llari kabi masalalarni qamraydi.

O'quv dasturi "Davlat va huquq nazariyasi" fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Fan dasturi tarkibida fanning maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi, nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxati hamda baholash mezonlarini qamrab olgan.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda davlat va huquqni inson va jamiyatga nisbatan xizmatining mohiyati, ijtimoiy qimmati va ahamiyati haqidagi ilmiy tushunchalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarda normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va qo'llash mahoratini, davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi borasidagi umumnazariy bilimlarni ijtimoiy muammolarni shaxs va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatishdan iborat.

Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

“Davlat va huquq nazariyasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- davlat va huquq hodisalari, xususan, davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, amal qilishi va istiqboli ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

- davlat va huquqning mohiyati, uning eng muhim belgilari, davlat va huquqning amal qilishi, davlat shakllari, funksiyalari, mexanizmi haqida, davlat va huquqning hozirgi zamon tushunchasi, shuningdek hozirgi zamon davlati va huquqining nisbati kabilar ***haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishi;***

- hozirgi zamon davlatini demokratlashtirish masalalarida davlat va huquqning o'rni haqidagi nazariy bilimlarni, huquqiy normalarni ishlab chiqishda huquq nazariyasi haqidagi bilimlarni, davlat organlarini tashkil etish va faoliyati tamoyillarini bilish borasida ***amaliy ko'nikmalarni egallashi;***

- normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va qo'llash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini, ayniqsa qonun loyihalarini ishlab chiqish, amaldagi qonunchilikni huquqiy ekspertizadan o'tkazish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitusiyaga va xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi bo'yicha monitoring o'tkazish, huquqiy xususiyatdagi hujjatlarni tuzish, qonun doirasida huquqiy qarorlar qabul qilish va boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish ***malakalarini egallashi;***

- “Davlat va huquq nazariyasi” fani yuzasidan tavsiya etilgan ma'lumotlardan xabardor bo'lish va olingan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash ***kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.***

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

“Davlat va huquq nazariyasi” bakalavriaturaning 1 va 2-semestrlarida o'qitiladigan fan hisoblanib, yuridik fanlar tizimida o'ziga xos umummetodologik va fundamental ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur fan davlat va huquq hodisalarini o'rganuvchi falsafa, tarix, sosiologiya, politologiya kabi boshqa bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog'liq.

1-mavzu. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fundamental fan.

Mashg'ulot maqsadi: Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va xususiyatlarini, uning ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rni va rolini, fanning metodlari va funksiyalarini o'rganish.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy va umumiy qonuniyatlari, ularning mohiyat va maqsadi, vazifasi, jamiyat hayotidagi ahamiyati davlat va huquq nazariyasining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqni yaxlit institut sifatida ko'rib chiqadi.

Fanning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Davlat va huquq nazariyasi – ijtimoiy fan.
2. Davlat va huquq nazariyasi – nazariy fan.
3. Davlat va huquq nazariyasi – falsafiy fan.
4. Davlat va huquq nazariyasi – metodologik fan.
5. Davlat va huquq nazariyasi – amaliyotga yo'naltirilgan fan.
6. Davlat va huquq nazariyasi – o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga ega fan.

Davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar: falsafa, siyosat, iqtisod kabi fanlar bilan bog'liqdir.

Falsafa davlat va huquqni eng umumiy tarzda ijtimoiy kategoriya sifatida o'rganadi. Falsafa davlat va huquq nazariyasi uchun umumnazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Siyosatshunoslik siyosatni, siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyati jamoat tagkilotlari va ularning faoliyatini, davlat va shaxsning siyosiy – huquqiy munosabatlarini o'rganadi.

Iqtisodiy fanlar jamiyatning bazisini, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlarini, xo'jalik sohalarini tashkil etishni, moliya, kredit va boshqalarni o'rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqni o'rganuvchi yuridik fanlar tizimini boshqaradi.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy fundamental va metodologik fan sifatida maydonga chiqadi. Davlat va huquq nazariyasi bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq va o'zaro aloqadordir. U yuridik fanlarning umumiy markazi bo'lib hisoblanadi.

Fanda metod (usul) deganda haqiqiy borliqni xolis aks ettiruvchi bilimlarni olish uchun qo'llaniladigan ilmiy faoliyat prinsiplari, qoidalari, usullari tushuniladi.

Davlat va huquqning kelib chiqishi, mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash ularning mavjud bo'lish shakllarini, qonuniyatlarini belgilash, ularni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish, ularning tarixiy istiqbolini belgilash imkonini beruvchi dialektik va tarixiy materializm davlat va huquq nazariyasining uslubiy (metodologik) asosi hisoblanadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat – huquq muammolarini tadqiq etishda dialektik va tarixiy materializmga tayangan holda bilimning tizimli – tarkibiy, qiyosiy, tarixiy, mantiqiy, sosiologik singari usullardan keng foydalanadi.

Davlat va huquq nazariyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ontologik funksiya. Borliq to'g'risidagi ta'limot bo'lib, u borliqning asoslari, tamoyillari, uning tuzilmasi, qonuniyatlarini tadqiq etadi. Davlat va huquq nazariyasi nazariy qoidalar va usullar ishlab chiqishi yo'li bilan huquqiy bilimni rivojiga ta'sir qiladi. Bu uning gnoseologik funksiyani bajarishligini anglatadi.

2. Evristik funksiya. Evristika – haqiqatni topish, yangi ixtirolar kashf etish san'ati, yangi bilimlarni topish, hosil qilish, yangi xususiyatini aniqlash, ilmiy haqiqatni topish.

3. Metodologik funksiya. Umuman huquqshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar va xulosalarni ishlab chiqadi. Bu tushunchalar va konsepsiyalar tarmoq va maxsus fanlar uchun "Tayanch nuqtalari" bo'lib xizmat qiladi.

4. Siyosiy – boshqaruv funksiyasi – davlat va huquq nazariyasi davlatning ichki va tashqi siyosatining ilmiy asoslarini shakllantirishga, davlat boshqaruvini ilmiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Ma'rifat funksiya. Davlat va huquq to'g'risidagi g'oyalarni bir tizimga soladi. Huquq subyektlari huquqiy ongiga ta'sir etuvchi muhim g'oyaviy omil sifatida ijtimoiy hayotga, kishilarning xulq – atvoriga va shu tariqa butun ijtimoiy hayotni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi.

6. Ilmiy bashorat davlat – huquqiy sohada oldindan ko'ra bilish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi, davlatchilikning kelajagiga "nazar tashlash" imkoniyatini beradi.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejasi	1. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va xususiyatlari. 2. Fanning ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rni va roli. 3. Fanning metodlari. 4. Fanning funksiyalari.
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob

Muhokama uchun savollar.

1. Yuridik fanlarning tasniflanishi.
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.
3. Davlat va huquq nazariyasi fanini o'rganishda metodlarning ahamiyati.
4. Davlat va huquq nazariyasi masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ.

- Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат назарияси). -ф.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонқулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
9. Бобоев Ҳ. Раҳмонқулов Ҳ. Ҳуқуқ фанининг истиқбоби ва режалар // Давлат ва ҳуқуқ. -2000. -№ 1. -Б. 3-6.
10. Исломов З.М. Ҳуқуқий сиёсат шаклланиши ва амалга оширилишида юридик фаннинг аҳамияти. // Ж. Ҳаёт ва қонун.-2003. -№3.
11. Назаров К.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов асарларида давлат ва ҳуқуқ назариясининг ривожланиши. Ўқув қўлланма. Самарқанд., 2003.

2-mavzu. Davlat va huquqning kelib chiqishi.

Mashg'ulot maqsadi: Davlat va huquq yuzaga kelgunga qadar mavjud bo'lgan jamiyatning mohiyatini aniqlash, ijtimoiy hokimiyatni tashkil etish shakllarini, davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidai turli xil nazariyalarni tahlil qilish.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan, u o'zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan, jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida davlat yetarlicha rivojlanmagan siyosiy hodisa bo'lgan. Bunday davlat eng avvalo, majburlashga asoslangan.

Ibtidoiy jamiyat taraqqiyotini ikki asosiy davrga ajratib ko'rsatish qabul qilingan.

1. O'zlashtirish (iste'mol) iqtisodiyoti davri. Bunda asosan ovchilik, baliq ovlash, to'plash bilan shug'ullangan bo'lib, bu davrga ona urug'i (matriarxat) mos keladi.

2. Ishlab chiqarishga asoslangan chorvachilik, dehqonchilikning davri ota urug'i (patriarxat)ga to'g'ri keladi.

Ibtidoiy jamiyatda hokimiyat urug', qabila boshliqlarining obro' e'tiboriga tayangan. Oliy organ oqsoqollar yig'ini majlisi bo'lgan. Hokimiyat qarori barcha uchun majburiy bo'lgan.

Ibtidoiy jamiyatdagi uncha murakkab bo'lmagan munosabatlar odat qoidalari bilan tartibga solingan. Davlatgacha bo'lgan jamiyatdagi odat qoidalari mono-norma (yakka norma – me'yor) xarakterida bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ijtimoiy hayotni tashkil qilish qoidasi ham, ibtidoiy axloq qoidasi ham, udumlar va rasm-rusumlar qoidasi bo'lib ham hisoblangan.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala to'rt asrlar davomida ko'plab mutaffakir faylasuflar, yuristlar, tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqida turli xil nazariyalar mavjud. Shulardan ayrimlarini ko'ramiz.

1. **Teologik nazariya** vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganini uqtiradilar, "butun hokimiyat xudoniki" degan qoidani ilgari suradi. Diniy nazariya asoschilari davlat ollohning erkiga bog'liq, unga bo'ysunish lozim bo'lgan. Bu nazariya yirik namoyondalaridan biri Foma Akvinskiy (1225-1274).

2. **Patriarxal nazariya** tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx hokimiyati go'yo oilaning barcha a'zolariga

otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi) Gretsiyada paydo bo'lgan va Arastu (Aristotel) asarlarida asoslab berilgan, XVII asrda ingliz olimi Filmerning "Patriarx" asarida rivojlantirilgan.

3. **Shartnoma nazariyasi** XVII – XVIII asrlarda yoyilgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Grosiy va Spinoza, Angliyada – Lokk va Gobbs, Fransiya – Russo, Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirilgan. Ularning fikricha hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergan. Shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat – ongli ijod mahsuli odamlar kelishgan ahd natijasi. Davlat o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

4. **Zo'rlik nazariyasi** (L.Gumplovich, K.Kautskiy, Y.Dyuring)ga ko'ra davlatning kelib chiqishida zo'rlik harakati, bir xalqning boshqa xalqni bosib olishni yotadi. Davlat g'olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi.

5. **Irrigasiya nazariyasiga** ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq.

6. **Sinfiy nazariya** namoyandalari (K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar – ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama – qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejasi	1. Jamiyat, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar. 2. Davlatning kelib chiqishi. 3. Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash

Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob

Muhokama uchun savollar.

1. Ibtidoiy jamiyat tushunchasi.
2. Jamiyatdagi ijtimoiy normalar.
3. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning xilma-xilligi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат назарияси). -ф.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
9. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) / Масъул муҳаррир: Б.Аҳмедов. –Т.: Шарқ, 2000. -386 б.
10. Мухаммедов Х. Ўзбекистон давлатчилигининг ҳуқуқий асослари. (Монография). –Т.: Адолат, 1999. -152 б.

3-mavzu: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari.

Mashg'ulot maqsadi: Davlat tushunchasi, mohiyati va belgilarini o'rganish, davlat mohiyati haqidagi turli xil nazariyalarga tavsif berish, davlat tipologiyasini tahlil qilish.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

“Davlat” keng ma'noli tushunchadir. Davlat mohiyatini tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

1. Davlat-umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi.

2. Davlat sinflarining paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfnig boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi.

3. Davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning asosiy belgilari:

1. O'ziga xos ommaviy hokimiyat davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi:

2. Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashini bildiradi.

3. Suverenitet, ya'ni ichki va tashqi siyosatni o'tkazishda mustaqil bo'lish.

4. Huquq tizimining mavjudligi.

5. Soliq tizimiga egaligi.

Davlatning tipi – muayyan davlatlarga xos bo'lgan bir xil, muhim va umumiy belgilar yig'indisi.

Davlatlarning tiplariga ajratishda formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Formatsion yondashuv – davlatlarni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratish.

Sivilizatsion yondashuv – davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bir qatorda ko'proq ularning ma'naviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratish.

Davlatlarni tiplarga ajratishda quyidagi tasniflar ham mavjud:

1. Totalitar davlat
2. Avtoritar davlat
3. Liberal davlat

4. Demokratik davlat

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejası	1. Davlat tushunchasi va mohiyati. 2. Davlatning asosiy belgilari. 3. Davlatning tiplari.
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob

Muhokama uchun savollar:

1. Davlat hokimiyati va uning belgilari.
2. Davlatning mohiyati.
3. Davlat tipologiyasi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат

- назарияси). -f.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
 6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
 7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
 8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
 9. Исломов З.М. Проблемы власти: её понимание, назначение, социальная ценность. (Монография). Т.: ТГЮИ, 2003. -244 с.
 10. Каримова Л.А. Ўзбекистон Республикасининг давлат рамзлари. –Т.: Адолат, 1995. -232 б.

4-mavzu: Davlat funksiyalari.

Mashg'ulot maqsadi: Davlat funksiyalari tushunchasi, davlat funksiyalarining tasnifi, fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatni barpo etish sharoitida funksiyalarni tahlil qilish.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Davlat funksiyalari – bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo'nalishlari.

Davlat funksiyalari davlat maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Davlatning funksiyalari uning mohiyatini ochib beradi. Davlat o'z oldiga qo'yg'an maqsadga erishishi uchun ma'lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu o'z navbatida tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Davlat funksiyalarining asosiy belgilari:

- 1) Mazmuni – davlat faoliyati bir xil jihatlarining yig'indisi;
- 2) Miqyosi – funksiyalar davlatni bir butun sifatida qamrab oladi;
- 3) Xususiyati – kompleks, majmuaviy;
- 4) Maqsadi – insonning ijtimoiy himoyalanganligi, tashqi xavfsizlik va hokazo.

Davlatning funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

Davlatning ichki funksiyalari mamlakat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

Ichki funksiyaga quyidagilar kiradi:

- 1) Regulyativ (tartibga solish, boshqarish);
- 2) Qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish);

Regulyativ funksiya davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi o'rnini belgilaydi.

Tashqi funksiya – davlatning xalqaro maydondagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

1. Xalqaro hamkorlik;

Tashqi siyosiy faoliyat;

Tashqi iqtisodiy faoliyat;

2. Mudofaa va milliy xavfsizlikni ta'minlash.

Boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish – davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va muayyan davlatning manfaatlarini barcha davlatlarning aniq va umumiy manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi teng huquqli munosabatlar o'rnatish hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan turli xil faoliyatidir.

Tashqi hujumdan mamlakatni mudofaa qilish bo'yicha davlat funksiyasi – davlat faoliyatining muhim yo'nalishidir.

Davlatning mudofaa faoliyati uning har bir doktrinasiga asoslanib, quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topadi;

- Mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash;
- Qurolli Kuchlarni muntazam ravishda takomillashtirishi, ularning jangovor qobiliyatini va tayyorgarligini mutassil oshirib borish;
- Davlat chegaralarini qo'riqlash;
- Fuqaro mudofaasini tashkil etish;
- Qurolli Kuchlar zahirasiiga harbiy ta'lim berish.

Hozirgi sharoitda eng avvalo, davlat funksiyasiga butun fan-texnika taraqqiyoti intellektual rivojlanish muayyan ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi barcha davlatlarning funksiyasiga XXI asrdagi fan-texnika yutuqlari o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Shunday qilib, davlat funksiyalari davlat organlari butun tuzilishining jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan yaxlit o'zaro bog'liq faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular ayni vaqtda, boshqa davlatlar bilan birga aloqadorlikda harakat va hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejasi	1. Davlatning funksiyalari tushunchasi. 2. Davlat funksiyalari turlari. 3. Globalizatsiya sharoitida davlat funksiyalari.
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.

Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob
------------------------	--------------------------------

Muhokama uchun savollar.

1. Davlat funksiyalari tushunchasi, belgilari va turlari.
2. Davlatning tashqi funksiyalari.
3. Davlatning ichki funksiyalari.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат назарияси). -ф.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонқулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
9. Нажимов М., Сайдуллаев Ш. Давлат функциялари. Т.: ТДЮИ, 2004. -36 б.
10. Нажимов М.К. Давлатнинг экологик функцияси ва экологик хавфсизликнинг ўзаро боғлиқлиги. // Ж. Ҳаёт ва қонун. - 2001.-№2.-Б. 40-41.
11. Нажимов М.К. Экологик сиёсат: уни шакллантиришда халқаро -ҳуқуқий тамойилларнинг аҳамияти. // Ж. Ҳаёт ва қонун. -2002. - 5-сон. - Б. 76-77.
12. Нажимов М.К. Ички ишлар органларининг экологик

- функциялари. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. - 2003. -№ 2. -Б. 52-54.
13. Нажимов М.К. Давлатнинг экологик функцияси. // Ж. Қонун ҳимоясида. - 2003. -№ 9. -Б. 28-29.
14. Нажимов М.К. Суд ҳокимияти органларининг экологик функциялари. //Ж. Давлат ва ҳуқуқ. - 2005. -№1. -Б. 55-56.
15. Нажимов М.К. Прокуратура органларининг экологик функцияси. // Ж. ТДЮИ илмий мақолалари тўплами. - 2005. -№2.-Б. 106-108.
16. Нажимов М.К., М.Ахмадшоева Давлатнинг экологик функциясини такомиллаштириш муаммолари. // Илмий-амалий анжуман маъруза матн. 5 декабр 2004. -Т.: ТДЮИ, 2004.-Б. 213-217.

5-mavzu. Davlatning shakllari.

Mashg'ulot maqsadi:

Davlatning shakllari tushunchasi va uning tarkibiy qismlari, davlat boshqaruv shakllari: Respublika va monarxiya, davlatning tuzilish shakllari; Unitar, federativ va konfederativ, siyosiy rejim tushunchasi va turlari.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Davlat shakli deganda, davlatni boshqaruvi va tuzilishi usulini belgilaydigan tashqi xususiyatlari tushuniladi. Davlat shakli quyidagi uch elementni o'zida ifodalaydi:

- Davlat boshqaruvi shakli
- Davlat tuzilish shakli
- Siyosiy rejim.

Boshqaruv shakli oliy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholi bilan o'zaro munosabati, aholining ushbu idoralarning shakllantirishga ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Boshqaruv shakli monarxiya va respublikaga bo'linadi.

“Monarxiya” so'zi yunoncha yakka hokimlik ma'nosini bildiradi.

Monarxiyaning asosiy belgilari:

1. Monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i sifatida maydonga chiqadi.
2. Monarx davlatni yakka o'zi boshqaradi.
3. Monarx hokimiyati muqaddas deb e'lon qilinadi.
4. Monarx o'z faoliyatida rasman mustaqildir.
5. Hokimiyatni o'rnatish, qabul qilish (legitimlashtirish) ning alohida tartibi mavjud.
6. Muddatsiz, umrbod boshqaruv.
7. Monarx o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya mutloq va cheklangan (yoki parlamentar) shakllarda bo'ladi.

Davlat hokimiyatini boshqa bironta idora bilan cheklanmagan monarx (qirol, podshoh, imperator) amalga oshirsa, bunday monarxiya mutlaq monarxiya deyiladi.

Agar monarxning hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan biron bir vakolatli idora bilan cheklangan bo'lsa, bunday monarxiya cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament shaklidagi monarxiya bo'ladi.

“Respublika” so'zi yunonchada “umumiy ish” ma'nosini bildiradi. Jamoa ishi xalq ishi.

Respublikaning asosiy belgilari.

- Hokimiyat oily organlarning saylab qo'yilishi,
- Hokimiyat vakolatlarning taqsimlanishi,
- Qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ – sudlarning mavjudligi.
- Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishi.

Prezidentlik respublikasida davlatni xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo'lgan Prezident boshqaradi.

Parlamentar respublikada davlat boshlig'i saylanuvchi mansabdor shaxs bo'lib, nisbatan torroq vakolatlarga ega. Unda prezidentni parlament saylaydi. U rasman davlat boshlig'i hisoblanib, asosan vakillik funksiyalarini bajaradi.

Respublika shaklidagi boshqaruvning yana bir ko'rinishi aralash boshqaruv. Bunday boshqaruvda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari aralashib ketgan bo'ladi. Masalan, Fransiyada prezidentni xalq saylaydi u juda katta vakolatlarga ega bo'ladi, ammo hukumatni boshqarmaydi.

Davlat tuzilishi shakli uning ma'muriy hududiy tashkil etilishidir. Tuzilishi bo'yicha uch turga bo'linadi.

- Unitar
- Federativ
- Konfederativ

Unitar davlat – bu oddiy, yaxlit davlat bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo'ladi.

Unitar davlat belgilari.

1. Butun mamlakat miqyosida bir xil bo'lgan vakillik ijroiya va sud organlari bo'ladi;
2. Bitta konstitutsiya;
3. Yagona qonunchilik tizimi;
4. Yagona fuqarolik;
5. Yagona pul birligi.
6. Barcha ma'muriy – hududiy birliklar uchun umumiy bo'lgan soliq va kredit siyosati.
7. Unitar davlatlar tarkibiy qismlari suverenitetga ega emas.
8. Yagona armiya mavjudligi

Federativ davlat – murakkab, ittifoqdosh davlat. Odatda u bir qancha davlatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi.

Federativ davlat belgilari:

1. Federatsiya hududi uning subyektlari hududidan tashkil topadi;
2. Oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat organlariga tegishli bo'ladi.
3. Federatsiya subyektlari va federatsiyaning o'zi o'rtasidagi vakolatlar ittifoq konstitutsiyasi bilan ajratiladi.
4. Federatsiya subyektlari o'z konstitutsiyasi o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi ijro etuvchi va sud organlariga ega.
5. Federatsiyaning oliy qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasi ikki palatali tuzilishga ega.

Federatsiyaning bir-biridan farqlovchi uch turi mavjud. Hududiy, milliy va milliy-hududiy federatsiya.

Hududiy federatsiya mamlakatni hududiy belgisi bo'yicha taqsimlash prinsipiga asoslangan AQSH, Braziliya, Meksika misol bo'ladi.

Milliy federatsiyalarda subyektlar, ularda yashovchi millatlar mustaqilligi asosida tuziladi.

Milliy federatsiyaning asosiy xususiyatiga ko'ra, federatsiya subyektlari – milliy davlatlar va milliy davlatlar tuzilmalaridan iborat bo'lib ular asosan subyektlarning ixtiyoriylik prinsipiga muvofiq birlashadilar. Yugoslaviya, Chexoslaviya misol bo'ladi.

Milliy-hududiy federatsiyalar ittifoqini shakllantirish asosida ham milliy ham hududiy prinsip yotadi. Rossiya federatsiyasi, Germaniya misol bo'ladi.

Konfederatsiya – bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, mudofaa masalalari bo'yicha tuzgan ittifoqidir. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi.

Konfederatsiya belgilari;

1. Mustaqil davlatlarning muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashgan ekanligi;
2. Konfederatsiya – mustahkam bo'lmagan tuzilma;
3. Yagona hududning yo'qligi;
4. Konfederatsiya subyektlari undan erkin chiqish huquqiga egadirlar.
5. Konfederatsiya subyektlari ittifoq hokimiyati qonun hujjatlarining e'tirof etmaslik yoki qo'llamaslik huquqiga egadirlar.
6. Yagona fuqarolikning bo'lmasligi.
7. Konfederatsiya vakolatiga uncha ko'p bo'lmagan masalalarni hal etish kiradi;
8. Konfederatsiya budjeti uning a'zolarini ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

Hozirgi kunda 15ta davlatni birlashtirgan Yevropa ittifoqini misol keltirish mumkin.

Siyosiy rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarining majmui bo'lib mamlakatdagi siyosiy vaziyatni ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

Demokratiya – yunoncha xalq hokimiyati inson siyosiy fuqarolik huquqlarining kengligini fuqarolarning davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etishini, xalq idorasini demokratik hokimiyatning yagona manbai deb bilishni anglatadi.

Xalq hokimiyati ikki shaklga ega; Vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya.

Vakillik demokratiyasi xalqning o'z hokimiyatini vakillik idoralari, ya'ni demokratik hokimiyatining mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralarining saylab qo'yiladigan organlari orqali amalga oshirishining birligidir.

Bevosita demokratiya xalqning demokratik hokimiyati masalalarini hal etishda umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan to'g'ridan - to'g'ri ishtirok etishidir.

Nodemokratik rejimga xos xususiyat shuki, bunday rejimda davlat idoralari hokimiyatni amalga oshirish chog'ida demokratik prinsiplar va qoidalarga rioya etmaydilar.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejasi	1. Davlatning shakllari tushunchasi va uning tarkibiy elementlari. 2. Davlat boshqaruv shakli 3. Davlat tuzilish shakli 4. Siyosiy rejim
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.

Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob

Muhokama uchun savollar:

1. Monarxiya va respublika: tushunchasi va asosiy belgilari.
2. Federativ, unitar va konfederativ davlat
3. Siyosiy rejim va uning turlari.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат назарияси). -ф.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услугий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
9. Ахмедшаева М.А. “Инсон ва унинг ҳуқуқлари – олий қадрият”. Рисола. – Т.: ТДЮИ, 2002. -45 б.
10. Саидова А. Общепризнанные права человека. –М.: МЗ Пресс, 2002. - 267с.

6-mavzu: Davlat mexanizmi.

Mashg'ulot maqsadi:

Davlat mexanizmi, tarkibiy qismlari, davlat organlari tizimi hokimiyatlar bo'linish prinsipi: nazariya va amaliyot.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Davlat mexanizmi – jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalarining tizimi.

Davlat idorasi (organi) – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.

Davlat mexanizmi quyidagi asoslarga ko'ra faoliyat yuritadi:

Davlat mexanizmining yagonaligi. Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik tizimidir. Davlat organlari, o'zaro farq qilishiga qaramay, bir butunning qismlari hisoblanadi va o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Masalan, parlament va hukumat turli vakolatlarga ega, har xil mazmundagi ishlarni bajaradi, lekin har ikkisi ham birgalikda yagona davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Maqsad va vazifalarning umumiyliigi. Barcha davlat organlari umumiy maqsad va vazifalarni bajaradi, ya'ni davlat funksiyasini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashadi. Konstitusiyaning 7-moddasida belgilab qo'yilganidek "O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Ierarxik tizimga asoslanganligi. Davlat mexanizmi (apparati) piramida shaklida bo'lib, unda yuqori turuvchi organlar quyi turuvchi organlarga nisbatan ko'proq huquqiy vakolatlarga ega bo'ladi va ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladi, quyi turuvchi organlar yuqori turuvchi organlarning qarorini bajarishga majburdirlar.

Majburlov apparatining mavjudligi. Davlat organlari qonun chiqaruvchi organ, qonun qabul qilish va uni kuchga kiritish usuli bilan, ijro etuvchi organlar boshqaruv, majburlov va rag'batlantirish usullari bilan, sudlar, prokuratura va huquqni muhofaza etuvchi organlar majburlov va ishontirish usuli bilan huquqiy normalarni tatbiq etadilar. Fuqarolar davlat

tomonidan o'rnatilgan qoidalarga rioya qilmasalar, davlat o'zining majburlov kuchi orqali qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi. Bular: prokuratura, ichki ishlar organlari, bojxona, milliy xavsizlik xizmat, jinoiy jazoni ijro etish muassasalari, moliya organlari, armiya va boshqalar.

Boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar guruhining mavjudligi. Davlat organlarida faoliyat yurituvchi shaxslar, faqat boshqaruv ishlari bilan shug'ullanadilar, ular ishlab chiqarish va moddiy ne'matlar yaratish jarayonida ishtirok etmaydilar. Biroq, ushbu toifadagi shaxslar davlat va jamiyat manfaatlari uchun faoliyat ko'rsatadilar.

Hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari ichki tuzilishining mavjudligi. Davlat mexanizmining bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida davlat organlari davlat muassasalari va davlat tashkilotlari birgalikda faoliyat yuritadi va o'z navbatida, ular ichki tarkibiy tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshirishda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining asosiy bo'g'ini. Misol, prokuratura, sud, ichki ishlar organlari.

Davlat tashkilotlari – bevosita ishlab chiqarish hamda ta'minot bilan shug'ullanuvchi davlat idorasi hisoblanib, davlat uchun aniq eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Masalan, metro, elektr energiyasi tarmog'ini boshqarish, aloqa tizimi.

Davlat muassasalari – davlat organlari kabi hokimiyat vakolatiga ega bo'lmay, davlatning oldiga turgan umumijtimoiy vazifalarni bajaruvchi idoralar. Masalan, kasalxonalar, maorif, teatr.

“Davlat apparati” va “Davlat mexanizmi” degan tushunchalar adabiyotlarda ko'p uchraydi. Bu tushunchalar asosan bir xil ma'no va mazmunga ega. Lekin, davlat mexanizmi kengroq tushuncha. Agar “Davlat apparati” iborasi orqali davlatning strukturasi, tarkibiy tuzilishi izohlansa, “Davlat mexanizmi” iborasi ko'magida davlat idoralari tizimining funksional jihat (xususiyatlari) tavsiflanadi.

Davlat mexanizmi faoliyati va uni tashkil etishning asosiy prinsiplari:

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlat hokimiyatining uch asosiy tarmog'idir.

Hokimiyatlar taqsimlanishining yuridik ma'nosi buyuk fransuz ma'rifatparvari Sh. L. Monteskening “Qonunlar ruhi haqida” asarida izohlab berilgan.

Hokimiyatlar taqsimlanishi uch jihat yoki uch darajada: funksional, institusional va shaxsiy darajada namoyon bo'ladi.

Hokimiyatning funksional bo'linishi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat kuch ishlatish qoidalarini o'rnatadi, sud hokimiyati kuch ishlatishning aniq choralariga yo'l qo'yadi yoki ular yuzasidan farmoyish beradi: Ijro etuvchi hokimiyat qonunlar va sud qarorlari asosida va ularni bajarish yo'lida harakat qilmog'i lozim.

Hokimiyatning institusional bo'linishi.

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud funksiyalarini bajarish bir shaxs yoki muassasa qo'lida jamlanmasligi kerak. Hokimiyatning bo'linishi majburlov kuchiga ega bo'lgan instansiyalarni kuch ishlatish to'g'risida qaror qabul qiluvchi instansiyalardan ajratishni bildiradi.

Hokimiyatning shaxslar bo'yicha bo'linishi. Hokimiyat vakolatlarini konstitusiyaviy bo'linishining bosh ma'nosi ijtimoiy – siyosiy kuchlar orasida hokimiyat vakolatlarining oqilona taqsimlanishidir. Bundan maqsad hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olish, hokimiyatlarning bir-birlarini muvozanatda ushlab va cheklab turishidir.

Inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining ustuvorligi prinsipi. Davlat organlarini tashkil etishdan asosiy maqsad inson, uning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash himoya qilish va ularga rioya etish. Har qanday demokratik huquqiy davlatda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

Demokratizm prinsipi. Davlatning qonun chiqaruvchi organlari xalq tomonidan saylash orqali tashkil etiladi. Mahalliy joylardagi xalq deputatlari kengashlari ham demokratik saylov asosida shakllantiriladi.

Ijro etuvchi hokimiyat – hukumat ham xalq tomonidan saylangan prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan tashkil qilinadi.

Pog'onama – pog'ona bo'ysunish (iyerarxiya) prinsipi.

Iyerarxiya – pog'onama – pog'ona, piramida, o'zaro bo'ysunuvdagi kabi so'zlar bilan bir ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy davlat organlarining qarorlari mamlakatning butun hududida quyi turuvchi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy.

Professionalizm prinsipi. Davlat apparati xizmatchilari o'z sohalarining yetuk mutaxassislari bo'lib, ular maxsus malaka va bilimga yetarli tajriba va amaliy o'quvga ega bo'lgan xodimlar hisoblanadi.

Kollegiallik va yakkaboshchilikning birgaligi prinsipi. Davlat apparati organlari o'z faoliyatini kollegiallik va yakka boshchilik asosida amalga oshiradilar. Oliy Majlis quyi palatasi deputatlari va yuqori palatasi senatorlarning xizmat faoliyatida bu yaqqol ko'rinadi. Ushbu organlar

bamaslahat, muhokama tarzida bir-biri bilan hamkorlikda masalalarni hal etadilar. Yakkaboshchilik prinsipi esa masalan, qo'mita raisining tegishli masala yuzasidan yakka tartibda buyruq chiqarishi, Vazirning buyrug'i va hokazo.

Saylanish va tayinlanishning uyg'unligi. Davlat mexanizmining tashkil etilishi saylanish va tayinlanish orqali amalga oshiriladi. Oliy vakillik organlari qonunchilik palatasi deputatlarining barchasi, senat a'zolarining aksariyat qismi, Oliy Sud organlarining rais va o'rinbosarlari saylash orqali tegishli vakolatga ega bo'ladilar. Ijro etuvchi organlar tayinlash tartibida shakllantiriladi.

Hozirgi O'zbekiston davlati mexanizmining tarkibiy – funksional tahlili unga kiruvchi tarkibiy qismlarning, ya'ni davlat organlarining roli va o'rnini aniq tasavvur etishni anglatadi.

Davlat organi – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.

Davlat organlarining belgilari quyidagilardan iborat:

Operativ boshqaruvda bo'lgan ommaviy mulkka ega va byudjet tomonidan moliyalashtiriladi.

Davlat nomidan muayyan sohada uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi.

Jumladan, davlatdagi huquqiy tartibotni ta'minlash sohasini Ichki ishlar vazirligi, prokuratura organlari amalga oshirsa, davlatning tashqi funksiyalarini tashqi ishlar vazirligi, tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, mamlakat Mudofasini esa mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati amalga oshiradi.

Hokimiyat vakolatlariga egaligi. Davlat organlari muayyan hokimiyat vakolatlariga egaligi bilan boshqa davlat muassasalari va tashkilotlaridan farq qiladi. Davlat organlari ishontirish va majburlash usullaridan foydalanib, qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlaydilar.

Tarkibiy tuzilishga egaligi. Davlat organlari xizmat turlari va tarkibiy miqdoriga ko'ra muayyan tuzilishga ega. Masalan, ijro etuvchi hokimiyat organlari vazirlik va davlat qo'mitalaridan iborat: vazirlik (qo'mita) tarkibi esa bosh boshqarma, boshqarmalar, bo'lim, bo'linmalar tarzida tashkil etiladi.

Hududiy faoliyat miqyosida egaligi. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlarining faoliyati butun O'zbekiston hududini qamrab oladi,

mahalliy davlat organlari faqatgina tegishli viloyat, shahar, tuman hududi miqyosida faoliyat yuritadi.

Qonun vositasida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari qonun yo'li bilan tashkil etiladi va tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartib hamda vakolatlar asosida faoliyat yuritadi.

Davlat organlarining turlari. Davlat faoliyatini amalga oshirish shakli bo'yicha: vakillik, ijroiya, sud organlari va prokuratura organlariga ajratiladi.

Vakillik organlari O'zbekiston Respublikasida markaziy va mahalliy vakillik organlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlatning oliy vakillik organdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'i va Konstitutsiyaning kafili hisoblanadi.

U davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi hamda ularning hamkorligini taminlaydi.

Ijroiya organlar. Vazirlar mahkamasi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va Oliy Majlisning hamda uning palatalarining qarorlarini ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon, farmoyish va qarorlar bajarilishini ta'minlovchi ijro organi.

Sud hokimiyatini organlari O'zbekiston Respublikasida 5 yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat. Favqulodda sudlar tuzishiga yo'l qo'yilmaydi.

Prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratini O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

Yuqoridan quyiga qarab bo'ysunuviga ko'ra: markaziy va mahalliy davlat organlari. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari pog'onama – pog'ona bo'ysinish tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, mahalliy organlar markaziy organlarining itoatida bo'ladi. Markaziy davlat organlari chiqargan normativ – huquqiy hujjatlar mahalliy davlat uchun majburiy xususiyatga ega.

Vakolat muddatiga ko'ra: doimiy va vaqtinchalik davlat organlari.

Doimiy organlar – faoliyat muddati cheklanmagan, doimiy faoliyat olib boruvchi davlat organlari. O'zbekiston Respublikasidagi huquqni muhofaza

qiluvchi organlari doimiy faoliyat olib boruvchi organlar sifatida ko'rsatish mumkin.

Vaqtinchalik organlar – jamiyat oldida turgan biron-bir muhim vazifani muayyan muddat davomida amalga oshiruvchi va mazkur ishlar yakun topishi bilan o'z faoliyatini to'xtatuvchi organlar hisoblanadi.

Shakllanish manbaiga ko'ra: Birlamchi va ikkilamchi davlat organlari.

Birlamchi davlat organlari – xalq tomonidan to'g'ridan – to'g'ri saylash yo'li bilan tashkil etiladigan organlar. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati (qisman) saylash yo'li bilan tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining raislari va sudyalari Senat tomonidan saylanadi.

Ikkilamchi davlat organlari – xalq tomonidan saylangan, tashkil etilgan yoki shaxslar tomonidan shakllantiriladigan davlat organlari. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalq saylagan Prezident va Oliy Majlis tomonidan shakllantiriladi. Vazirliklar va davlat qo'mitalari Prezident tomonidan tashkil etiladi.

Vakolatni amalga oshirish tartibiga ko'ra, kollegial organlar va yakka tartibda vakolatni amalga oshiruvchi organlar.

Kollegial organlar – o'z ish faoliyatini jamoaviy tarzda, ya'ni kollegial asosda tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning palatasida qonunlar deputatlarning jamoaviy muhokamasi va umumiy ovozi asosida qabul qilinadi.

Yakka tartibda faoliyat yurituvchi davlat organlari – mazkur organ rahbarlari xizmat faoliyatida muayyan rahbarlik qilish shaklidan ma'lum bir ma'noda mustaqil bo'ladi va o'zi yakka holda qaror qabul qiladi.

Davlat organlari faoliyatning (vakolatlarining) chegaralanishi g'oyasi eng umumiy ko'rinishda antik davr donishmandlari – Platon, Aristotel, Polibiy, Likurg va boshqalar tomonidan ifoda etilgan.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasi "Klassik" shaklining an'anaviy asoschilari Jon Lokk va Sharl Lui Monteskyedir. Hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va federal turlarga bo'linishi, Lokkning fikricha, inson huquqlarini ta'minlashning eng muhim vositalaridan biridir.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha seminar mashg'uloti
Asosiy mashg'ulot rejasi	1. Davlat mexanizmi tushunchasi. 2. Davlat apparatini tashkil etish asoslari. 3. Davlat organi va uning turlari.
Ta'lim berish usullari	Tushuntirish, suhbat, o'qitish, munozara, savol – javob texnikasi
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, flikchart, markerlar, o'quv topshiriqlari.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob

Muhokama uchun savollar:

1. Davlat funksiyalarini amalgam oshirishda davlat mexanizmining o'rni.
2. Davlat mexanizmi faoliyati va uni tashkil etish prinsiplari.
3. Davlat organlari.
4. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: TDYI, 2005. -528 b. (лотин ёзувида)
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар Ҳ. Б. Бобоев, Ҳ. Т. Одилқориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.-528 б.
3. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат, 2001. -695 б.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат

- назарияси). -f.: Адолат, 2000. -272 б.
5. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д. проф; Ҳ.Бобоев, ю.ф.д. проф. -Т.: Адолат, 2007. - 916 бет.
 6. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси (саволлар, таърифлар, тушунча ва атамалар) / Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -95 б.
 7. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. I жилд. Давлат назарияси. - Т.: Адолат, 2001. - 336 б.
 8. Холмўминов Қ. Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. - Т.: Адолат, 2000.-116 б.
 9. Аҳмедшаева М.А. Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДЮИ, 2005. -70 б.
 10. Аҳмедшаева М.А Ҳокимиятлар бўлинишида «бир бирини тийиб, мувозанатда ушлаш» тизими. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. -2004. -№ 5. - Б. 6-7.
 11. Аҳмедшаева М.А Конституциявий ҳуқуқларни ҳимоялашда ҳўжалик судларининг ўрни. // Илмий-назарий анжуман маъруза матн. 4 декабр 2004. -Т.: ТДЮИ, 2004. -Б.85-90.
 12. Аҳмедшаева М.А. Конституция ва ҳокимиятлар бўлиниши принципи. // Илмий-назарий анжуман маъруза матн. 4 декабрь 2004. -Т.: ТДЮИ, 2004. -Б. 51-54.
 13. Аҳмедшаева М.А Ижро ҳокимиятига доир айрим назарий-ҳуқуқий масалалар. // Ж. ТДЮИ илмий мақолалар тўплами. -2005.-№1.-Б. 7-12.
 14. Аҳмедшаева М.А Ижро ҳокимияти ва масъуллик. // Ж. ТДЮИ илмий мақолалари тўплами. -2005, -№2. -Б. 21-23.
 15. Аҳмедшаева М.А Ижро ҳокимиятининг суд ҳокимияти билан ўзаро муносабатлари. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. - 2005. - №5. -Б. 10-12.
 16. Болтаев А.Р., Юлдашева З.А. Концепция разделения властей и ее воздействие на реформирование высших органов власти Узбекистана. - Т.: ТГЮИ, 2002. -32 с.
 17. Муқимов З.Ю. Ўзбекистон миллий давлатчилик назариясининг ҳуқуқий асослари. Дарслик Тошкент., 2005. -159 б.
 18. Нажимов М.К., Б.Шаякубов Ҳуқуқий давлат ва ҳокимиятлар бўлиниши. // Илмий-амалий анжуман маъруза матн. 5 декабр 2005. -Т.: ТДЮИ, 2005. - Б. 51-56.
 19. Одилқориев Х., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. ЎзР ИИВ Академияси,Т.,2005. -344 б.
 20. Одилқориев Х. Ҳокимиятлар тақсимланиши назарияси ва Ўзбекистон давлат органлари тизимининг такомиллашуви. // Ўзбекистон

Республикаси - мустақил давлат. -Т.: Адолат, 1995.-232 б.

21. Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар.-Т.: Ўзбекистон, 2001. -384 б.
22. Эргешова Д.Қ. Конституция ва суд -ҳуқуқ ислоҳотлари. // Илмий анжуман маъруза матн. 5 декабр 2005. -Б. 216-217.
23. Эргешова Д.Қ. Демократик ҳуқуқий давлатда суд тизими. // Илмий-амалий анжуман маъруза матн. 5 декабр 2005. -Т.: ТДЮИ, 2005.-Б. 117-121.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI BO'YICHA TESTLAR

1-test. Davlat sinfiy ziddiyatlar murosasizligining mahsuli va ko'rinishidir, deb hisoblaydigan nazariya qanday nazariya?

- a) teologik nazariya;
- b) shartnoma nazariyasi;
- v) markscha nazariya;
- g) zo'rlik nazariyasi.

2-test. Qanday belgilar davlatni ijtimoiy hokimiyatdan farqlaydi?

a) ommaviy hokimiyatning mavjudligi, davlat fuqarolarining hududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyatni saklab turish uchun aholidan soliq va yig'imlar to'plash;

- b) davlat jamiyatning rasmiy vakili ekanligi;
- v) qonuniylik va huquqiy tartibni ta'minlash uchun majburlov apparatining mavjudligi;
- g) normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladigan vakolatli davlat organlarining mavjudligi.

3-test. «Davlat funksiyalari» va «davlat vazifalari» tushunchalariga beril-gan ta'rifni tanlang.

- a) davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari;
- b) jamiyatni davlat tomonidan boshqarishning mohiyati va ijtimoiy vazifasini ifoda etuvchi davlat faoliyatining asosiy yunalishlari;
- v) davlat faoliyatining turlari;
- g) jamiyat uchun hal etilishi manfaatli bo'lgan va davlatning vakolati yuirasiga kiradigan obyektiv qiyinchiliklar.

4-test. Davlatning tegishli rivojlanish bosqichidagi maqsad va vazifalarni belgilab olish uchun qanday omillar hal qiluvchi hisoblanadi?

- a) davlatning mohiyati va ijtimoiy vazifalari;
- b) ma'muriy-hududiy tuzilishi;
- v) siyosiy (davlat) rejimi;
- g) davlat tuzilishining shakllari.

5-test. Davlatning tartibga solish funksiyalaridan birini ayting.

- a) atrof muhitni muhofaza qilish;
- b) barcha mulk shakllarini himoya qilish;
- v) inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoyalash;
- g) iqtisodiy funktsiya.

6-test. Davlat funksiyasi nima?

- a) davlat organlarining normativ huquqiy hujjatlar chiqarishga doir faoliyati;
- b) davlat faoliyatining asosiy yunalishlarini ifodalovchi vazifalarni amalga oshirish va muayyan maqsadga erishish;
- v) davlatning o'z fuqarolari huquklarini kafolatli amalga oshirishga doir faoliyati;
- g) davlat organlarining qonun ustunligini ta'minlashga doir faoliyati.

7-test. Davlatning qaysi funksiyalari xalqaro maydondagi faoliyatining aso-siy yo'nalishlarini tashkil etadi?

- a) doimiy;
- b) vaktinchalik;
- v) ichki;
- g) tashqi.

8-test. Davlat funksiyasini amalga oshirish usullari nimalardan iborat?

- a) ishontirish va majburlash;
- b) tarbiyalash va ishontirish;
- v) qonun chiqarish va majburlash;
- g) tarbiyalash va majburlash.

9-test. «Davlat shakli» tushunchasi qanday hodisalarni qamrab oladi?

- a) davlat tuzumining shakli;
- b) davlat boshqaruvi;
- v) davlat boshqaruvining shakli, davlat tuzumi, siyosiy rejim;
- g) davlatning demokratik rejimi.

10-test. Ko'rsatilgan qoidalaridan qaysi biri davlatning boshqaruv shaklini aks ettiradi?

- a) milliy davlat qurilishi;
- b) markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro munosabati;
- v) hokimiyatni tashkil etishning manbalari va usullari;
- g) hokimiyatni amalga oshirish vositalari va usullari.

11-test. Monarxiya respublikadan nimasi bilan farq qiladi?

- a) referendum va ommaviy saylov e'lon qilinishi;
- b) hukumatning parlament asosida tuzilishi;
- v) prezident va parlament oldida hukumatning ikki yoklama javobgarligi;
- g) hokimiyatning bir shaxe qo'lida bo'lib, uning meros qilib berilishi.

12-test. Respublika nima?

- a) hokimiyat yuridik jihatdan va amalda monarx tuzgan hukumat hamda parlament o'rtasida bo'linadigan davlat;
- b) oliy hokimiyatni davlat xrkimiyatining saylov organlari amalga oshiradigan boshqaruv shakli;
- v) oliy davlat hokimiyati butunicha bir shaxsga tegishli bo'ladigan boshkaruv shakli;
- g) davlat hayotini tashkil etishda hal qiluvchi o'rin parlamentga tegishli bo'ladigan boshqaruv shakli.

13-test. Hukumat parlament tomonidan tashkil etilib, parlament oldida javob beradigan boshqaruv shaklini ko'rsating.

- a) konstitusiyaviy monarxiya;
- b) parlament respublikasi;
- v) prezident respublikasi;
- g) monarxiya.

14-test. Davlatning tuzilish shakllari qanday?

- a) parlament respublikasi, monarxiya;
- b) demokratiya, avtokratiya, totalitarizm;
- v) prezident respublikasi, konstitusiyaviy monarxiya;
- g) unitar davlat, federasiya, konfederasiya.

5-test. Unitar davlat belgilarini ayting.

- a) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatining ikki tizimi;
- b) asosiy tashqi siyosiy faoliyatni federasiya organlari amalga oshiradi;
- v) bitta konstitusiya, davlat hokimiyati va qonun chiqaruvchi organlarning bir tizimi; yagona moliya va soliq tizimi, yagona qurolli kuchlar;
- g) yagona qurolli kuchlar, yagona moliya, soliq va pul tizimlari.

16-test. Unitar davlatni ko'rsating.

- a) Amerika Qo'shma Shtatlari;
- b) Meksika;
- v) Hindiston;
- g) Yaponiya.

17-test. Konfederasiya nima?

- a) suverenitetga ega bo'lgan, ichki va tashqi ishlarda mustaqil subyekt hisoblangan muayyan maqsad uchun birlashgan, davlatlar ittifoqi;
- b) oliy hokimiyat organlari orqali shakllantiriladigan davlat;

- v) muayyan suverenitetga ega bo'lgan, siyosiy tuzilmalarga asoslangan davlat yoki milliy davlat tuzilishining shakli;
- g) boshlig'i bu amalni meros qilib olgan davlat.

18-test. Totalitar rejimning asosiy belgilaridan birini ajratib ko'rsa-ting.

- a) barcha davlat organlari faoliyatining huquqiy xususiyati;
- b) ijtimoiy hayotning keng ko'lamda harbiylashganligi;
- v) shaxsning o'zboshimchaliklar va qonunsizliklardan yaxshi himoyalanganligi;
- g) aholining davlat hokimiyati tabiatiga bevosiga ta'sir etishi uchun samarali mexanizmning mavjudligi.

19-test. Hokimiyatning bo'linishi nima?

- a) odil sudlov va prokuratura organlari funksiyalarining ajratib qo'yilganligi;
- b) ma'muriy va huquqni muhofaza qilish organlari funksiyalarining ajratib qo'yilganligi;
- v) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud organlari vakolatlarining ajratib qo'yilganligi;
- g) oliy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining ajratib qo'yilganligi.

20-test. Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining asoschilari kimlar?

- a) G. Spenser, Ye. Dyuring, Sh. Monteskye;
- b) A. N. Radishchev, J. Lokk, K. Kautskiy;
- v) J. Lokk, J. J. Russo, Sh. Monteskye;
- g) A. Gumplovich, Filmer, J. J. Russo.

21-test. Sh.L.Monteskye bayon etgan hokimiyatlarning bo'linishi prinsipiga qanday hokimiyat tarmoqlari muvofiq kelishini ko'rsating.

- a) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat;
- b) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati;
- v) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud va saylov hokimiyati;
- g) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, saylov va nazorat hokimiyati.

22-test. Davlat hokimiyati mexanizmi (apparati) deganda nima tushuniladi?

- a) davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining majmui;
- b) davlat hokimiyatini amalga oshirishda muhim o'rin tutadigan davlat muassasalarining majmui;
- v) hokimiyat uchun kurash olib boradigan siyosiy partiyalar majmui;

g) xalq irodasi va manfaatlarini ifodalaydigan jamoat birlashmalarining majmui.

23-test. Ko'rsatilgan tuzilmalardan qaysi biri davlat apparatiga kirmaydi?

- a) siyosiy partiyalar;
- b) hokimiyatning qonun chiqaruvchi organlari;
- v) hokimiyatning ijro etuvchi organlari;
- g) davlatning nazorat va taftish organlari.

24-test. Davlat organi nima?

- a) muassasa;
- b) davlat apparatining bo'g'ini;
- v) davlat mexanizmi;
- g) siyosiy tashkilot.

25-test. Uzbekistonda kaysi organ davlat hokimiyatining oliy vakillik organi hisoblandi?

- a) Prezident;
- b) Oliy sud;
- v) Oliy Majlis;
- g) Vazirlar Mahkamasi.

26-test. O'zbekiston Respublikasida qaysi organ qonunlarni qabul qiladi?

- a) Prezident devoni;
- b) Vazirlar Mahkamasi;
- v) Oliy Majlis;
- g) Konstitusiyaviy sud.

27-test. O'zbekistonda qaysi davlat organi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar chiqarishga haqli?

- a) Vazirlar Maqkamasi;
- b) Oliy Majlis;
- v) Oliy sud;
- g) Prezident.

28-test. Ijro etuvchi hokimiyat organlari nima?

- a) oliy va mahalliy hokimiyat organlari;
- b) davlat siyosati va qonunlar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladigan organlar;
- v) odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat muassasalari;
- g) qonunlar qabul qiluvchi davlat organlari.

29-test. Uzbekistonda kaysi organlar ijro etuvchi organlar tizimiga kiradi?

- a) Vazirlar Mehkamasi, hokimliklar va Oliy Majlis Kengashi;
- b) Prezident, sudlar;
- v) Vazirlar Mehkamasi, Prezident, hokimliklar;
- g) Oliy Majlis, Konstitusiyaviy sud.

30-test. Uzbekistonda kim farmonlar chiqarish vakolatiga ega?

- a) Oliy Majlis Kengashi;
- b) Respublika Prezidenti;
- v) Bosh vazir;
- g) Konstitusiyaviy sud.

31-test. Qaysi organ odil sudlovni amalga oshiradi?

- a) notariat;
- b) prokuratura;
- v) sud;
- g) advokatura.

Nazorat savollari

1. Davlatni kelib chiqishida G'arb va Sharq modellari.
2. Yuridik fanlarning tasniflanishi.
3. Davlat tuzilish shakli.
4. Davlat boshqaruv shakli.
5. Jamiyat tushunchasi.
6. Davlat mexanizmida hokimiyatlar bo'linishi tamoyili.
7. Davlat organlari tizimi.
8. Davlatning mohiyati.
9. Davlat va huquq nazariyasi fani yuridik fanlar tizimida.
10. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.
11. Davlatning tashqi funksiyalari.
12. Suverenitet - davlatning asosiy belgisi sifatida.
13. Davlat va huquq nazariyasi fanini o'rganishda metodlarning ahamiyati.
14. Davlatning ichki funksiyalari.
15. Davlat hokimiyati va uning belgilari.
16. Davlat tipiga sivilizasion yondashuv.
17. Davlat va huquq nazariyasi — umumnazariy fan.
18. Davlat funksiyalari tushunchasi.
19. Davlat funksiyasi shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar.
20. Davlat tipiga formasion yondashuv.
21. Ibtidoiy jamiyat: tushunchasi va mohiyati.
22. Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi nazariyalar.
23. O'zbekiston Respublikasi shaklining o'ziga xos xususiyatlari.
24. Davlat mexanizmi.
25. Davlat organlarining turlari.
26. Monarxiya davlat boshqaruv shakli tushunchasi va asosiy belgilari.
27. Jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar.
28. Davlat tushunchasi.
29. Davlat funksiyalarini tasniflash mezonlari.
30. Davlat tipologiyasi.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida zamonaviy davlatning mohivati.
32. Ijtimoiy hokimiyat tushunchasi.

33. Monarxiya turlari.
34. Konfederativ tuzilish shakli.
35. Sud hokimiyati.
36. Davlat kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.
37. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti.
38. Davlat tushunchasi va belgilari .
39. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o'zbek davlatchiligi to'g'risidagi g'oyalar.
40. Davlat mexanizmi tushunchasi, tarkibiy qismlari.
41. Ijtimoiy munosabatlar.
42. Davlat tiplari.
43. Davlat mohiyati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidasi turli nazariyalar.
44. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari.
45. Huquq tushunchasi va belgilari.
46. Ijtimoiy normalar tizimi.
47. Davlat apparatini tashkil etish va faoliyatini amalga oshirish
48. tamoyillari.
49. Respublika boshqaruv shakli.
50. Davlat tuzilish shakllari.
51. Huquqning funksiyalari.
52. Davlat tipologiyasi.
53. Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar.
54. Davlat organlari tizimi.
55. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari.
56. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida davlat hokimiyatini liberallashtirish masalalarining yoritilishi.
57. O'quv fani sifatida davlat va huquq nazariyasining tuzilishi.
58. Huquq tamoyillari.
59. Federativ tuzilish shakli.
60. Davlat apparati tushunchasi.
61. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari.
62. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari.
63. Davlat hokimiyati tushunchasi va belgilari.
64. Ijtimoiy normalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari.
65. O'zbekistonda davlat hokimiyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari.

66. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari.
67. Davlat va huquq nazariyasi fani huquqiy fanlar tizimida.
68. Unitar tuzilish shakli.
69. Davlat funksiyalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash.
70. Huquqiy fanlarning guruhlanishi.
71. Davlat mexanizmida hokimiyatlar bo'linishi tamoyili: nazariya va amaliyot.
72. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
73. Jamiyatning siyosiy tizimi.
74. O'zbekiston Respublikasining tashqi funksiyalari.
75. Ijroiya hokimiyat organlari.
76. Huquqning belgilari.
77. Huquq prinsiplari.
78. Qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari.
79. Davlatning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati.
80. Parlamentlik Respublikasi.
81. Huquq tushunchasi va ta'rifi.
82. Davlatning mohiyati haqidagi nazariyalar tavsifi.
83. Prezidentlik Respublikasi.
84. Davlat funksiyalari tushunchasi va tasnifi.
85. Davlat tushunchasi va ta'rifi.
86. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida huquqning ijtimoiy mohiyati haqida.
87. Davlat organlarining turlari.
88. Mutloq monarxiya boshqaruv shakli.
89. Davlatning siyosiy tizimi.
90. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi.
91. Cheklangan monarxiya boshqaruv shakli.

ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

ABSOLYUT MONARXIYA - davlat boshqaruv shakllaridan biri bo'lib, u barcha davlat hokimiyati (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati)ning, shuningdek diniy hokimiyatni to'raligicha monarx qo'lida yuridik va haqiqiy to'planishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda dunyoda quyidagi absolyut monarxiya davlatlari mavjud: Bahrayn, Bruney, Vatikan, Katar, Quvayt, BAA, Ummon, Saudiya Arabistoni. Bu davlatlarning ayrimlarida keyingi yillarda Konstitusiyaviy monarxiyaga o'tish yo'lida ilk qadamlar qo'yilmoqsa. Jumladan, Quvaytda (1962 y.), BAAda (1971 i.), Katarda (1972 y.), Bahraynda (1973 y.) Konstitusiya qabul qilindi, Quvayt va Bahraynda esa qonunchilik-maslahat parlamentlariga saylovlar ham o'tkazildi. Ammo bu islohotlar mazkur monarxiyalarning absolyutlik xarakterini o'zgartirmadi. Vatikan, Saudiya Arabistoni va Ummonda Konstitusiya yo'q, tegishli munosabatlar alohida davlat huquqiy hujjatlari orqali tartibga solinadi (Saudiya Arabistonida Qur'on mamlakatning rasmiy Konstitusiyam hisoblanadi). Konstitusiya va boshqa davlat huquqiy hujjatlariga ko'ra absolyut monarxiyada monarx bilan birgalikda, qonunchilik hokimiyati har xil turdagi qonunchilik-maslahat organlari (saylanadigan yoki tayinlanadigan) yordamida amalga oshiriladi.

AYB - bu shaxsning o'zining ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatiga nisbatan ruhiy va intellektual munosabatining yig'indisi hisoblanadi, ya'ni ayb deganda shaxsning o'z qilmishiga nisbatan subyektiv ruhiy munosabati tushuniladi. Ayb shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan ruhiy munosabatini ifodalash bilan birga, huquqbuzarlik tarkibi subyektiv tomonining yadrosini tashkil qiladi, biroq to'raligicha uni qamrab olmaydi. Shu bilan birga aynan ayb subyektiv tomonning zaruriy belgisini ifodalab beradi va agar ayb mavjud bo'lmagan taqdirda, huquqbuzarlik tarkibi tuliq mavjud bo'lmaydi va bu yuridik javobgarlikni keltirib chiqarishga asos bo'lmaydi. O'z navbatida ayb ikki element asosida yuzaga keladi: intellektual va irodaviy. Ularning ahamiyati aynan shaxsning ruhiy sog'liq holatida o'zi amalga oshirayotgan obyektiv harakatlarini, xususan, o'z harakat yoki harakatsizligining ijtimoiy zararini, ularning oqibatlarini (qilmish natijasida yuzaga kelgan oqibat bilan harakat yoki harakatsizlik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni), ehtiyotkorlikka ega bo'lish, ya'ni oqibat yuzaga kelishidan oldin ular haqida ma'lum bir darajada taxmin kila olish, shuningdek, ayrim xolatlarda o'ta yuqori diqqat

e'tibor va ruhiy kuch talab kilinayotgan tajriba, bilim darajaga ega bo'lish (intellektual holat), maqsadga erishish, oqibat kelib chiqishi uchun harakat qilish yoki unga nisbatan befarq munosabatda bo'lish, u yoki bu oqibatni kelib chiqishini istamaslik (irodaviy xolat), o'z hissiyotlarini ifoda etish, emosional holatlarni baholay olish va uni anglashda ifodalanadi.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI - aybdorning qilmishi qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning huquqbuzarlikni sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi, Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. UzR JPKning 23-moddasida ko'rsatilishicha, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon kilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

AQLI NORASOLIK - ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan, ya'ni surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

ANALOGIYA (yun. analogia - muvofiqlik, aynanlik, o'xshashlik) - biror harakat qonunda bevosita ko'rsatilmagan holda shunga o'xshash hodisani ko'zda tutadigan huquqiy normani mazkur harakatga tatbiq etish. Huquqning ayrim tarmoqlarida, jumladan, fuqarolik huquqida biror xil da'vo to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa, sud shunga o'xshash munosabatlarni ko'zda tutadigan boshqa qonunni qo'llaydi.

ANGLIYA-AMERIKA HUQUQIY TIZIMI - Angliyada, shuningdek, AQSh, Avstraliya, Irlandiya, Kanadada va Angliyaning boshqa sobiq mustamlakalarida amalda bo'lgan hozirgi davrning asosiy huquqiy tizimlaridan biri. Ingliz huquqi kontinental Yevropadan alohida rivojlangan, *Rim hukusi resepsiyasi* unga daxl etmagan. Angliya normannlar tomonidan istilo qilingan 1066 yil ingliz huquqi vujudga kelgan tarixiy sana hisoblanadi. Bungacha partikulyar, ya'ni sof mahalliy xususiyatga ega anglosakson huquqi mavjud bo'lgan. Ingliz - amerika huquqiy tizimi kontinental (roman -german) huquqiy tizimidan ancha farq qiladi. Ingliz - amerika huquqiy tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u statut huquqi (statute law) va umumiy huquq (common law)ra

bo'linadi. Muayyan huquqiy masalalarga doyr parlament hujjatlari statut huquqining manbai hisoblanadi. Umumiy huquq ko'plab sud presedentlaridan, ya'ni o'xshash ishlarni ko'rib chiqishda qo'llanilishi majburiy bo'lgan muayyan huquqiy prinsip (ratio iure)ni belgilovchi qarorlardan tashkil topadi. Urta asrlar oxirida eng muhim sud qarorlari to'plamlari hamda sud hisobotlari ishlovlari paydo bo'ldi; bu amaliyot hozirgacha saqlanib kelmoqda.

ASOSIY QONUN - mazmuni bo'yicha "Konstitutsiya" tushunchasiga moye keladi. Ma'lumki, Konstitutsiya normalari muayyan davlatning huquqiy tizimini tashkil etuvchi boshqa barcha normativ aktlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan yagona hujjat shaklida amal qiladi. A.q. konstitutsiyaviy tuzumning prinsiplari, institutlari, normalari va qadriyatlari rasman mustahkamlab qo'yiladigan huquqning eng oliy shakli (manbai). A.q.da muayyan mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzumi asoslari, davlat boshqaruv shakli va ma'muriy-hududiy tuzilishi, markaziy va mahalliy hokimiyat organlarini tashkil etish tartibi asoslari, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlari, shaxsning huquqiy holati, odil sudlov va saylov tizimini tashkil qilish va asosiy prinsiplari, davlat ramzlari belgilab qo'yiladi. O'z.R da 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya amal qilmoqda (unga 2003 yil 24 aprel Qonuni bilan ayrim qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan). O'zRning Konstitutsiyasi -davlatning Asosiy qonuni bo'lib, oliy yuridik kuchga ega, bevosita amal qiladi va O'zbekistonning barcha hududlarida qo'llaniladi. U muqaddima, oltita bo'lim, yigirma oltita bob va 128 ta moddadan iborat. Asosiy qonun (konstitutsiya) - biror davlatning ijtimoiy va davlat tuzumini huquqiy idoralarining faoliyati, ular o'rtasidagi munosabatlarning tartibini, shaxs, inson va fuqaroning huquqlari hamda erkinliklarini, hokimiyat organlarining maqomini belgilab beruvchi asosiy normativ hujjat. Konstitutsiyalarning yozilgan, yagona hujjat sifatida shakllangan yoki yozilmagan bir qancha hujjatlardan tashkil topgan va urf-odat, an'analarga asoslangan shakllari ham mavjud. Konstitutsiyalar kabul qilinish mexanizmiga ko'ra, qat'iy (barqaror) va oson o'zgartiriladigan konstitutsiyalarga bo'linadi.

BOSHQARUV SHAKLI - bu huquqiy institut bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va mahalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o'zaro munosabatlari tartibini o'z ichiga oladi. Boshqaruv shakllari hokimiyat bir shaxs tomonidan yoki saylab qo'yiladigan jamoaviy organ tomonidan amalga

oshirilishiga qarab jiddiy farq qiladi. Birinchi holda boshqaruvning monarxik shakli, ikkinchi holda esa respublika shakli namoyon bo'ladi.

VOTUM (*lot. votum - xohish, iroda*) - saylov jamoasi yoki vakillik organiining ko'pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov Votumi -Prezident, parlament, munisipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kompaniyasining natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida votum - qoidaga ko'ra quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo'li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma'qullashi (ishonch votumi) yoki

ma'qullamasligidir (ishonchsizlik votumi). Ishonch votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbuskori hukumatning o'zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo'lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste'fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatdan oldin saylovlar o'tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po'pisa qilish va shu orqali noma'qul qonun loyihalarini parlamentdan o'tkazish imkonini beradi.

GIPOTEZA - huquq normasida belgilanadigan qoida qanday sharoit va holatda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozisiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan muayyan aniq hayotiy holatlar (voqyea, harakat, holatlar) o'zining ifodasini topadi.

DAVLAT (milliy) RAMZLARI (*yun. symbolan - belgi*) — konstitusiya yoki maxsus qonun bilan belgilangan, qoidaga ko'ra muayyan bir davlatning milliy mustaqilligini, o'ziga xosligini o'zida mujassamlashtiradigan, ba'zan ma'lum mafkuraviy mazmunga ega bo'ladigan tarixiy shakllangan farqlovchi belgilari. Davlat ramzlariga odatda davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat madhiyasi, davlat rangi, davlat boshlig'i standarti, davlat muhri, davlat shiori kiritiladi. Ba'zan konstitusiyalar tantanali sanalarni ham Davlat ramzi qatoriga kiritadi (masalan, 1991 yil Ruminiya Konstitusiyasi — 1 dekabr Milliy kun).

DAVLAT APPARATI -bu davlat mexanizmining bir qismi bo'lib, u davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun berilgan vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari majmuidan iboratdir.

D. a. -davlat hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir. Davlat apparatini tashkil etish va faoliyatini amalga oshirishga doyr quyidagi

tamoyillar mavjud: a) mamlakat barcha aholisining manfaatlarini himoya qilishlik; b) qonuniylik; s) davlat apparatini tashkil etishda halqchillik (demokratizm); d) professionalizm, shu jumladan, kasb etikasi talablariga qat'iy amal qilishlik; ye) oshkoralik, ya'ni davlat huquqiy jarayonlarida bo'layotgan xodisalardan aholining xabardorligi; j) hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi va boshqalar.

DAVLAT BOSHQARUV AKTLARI - boshqaruv faoliyatining asosiy shakllaridan biri davlat boshqaruv organlari tomonidan huquqiy aktlar chiqarish hisoblanadi. Bu aktlar yordamida boshqaruv organlari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajaradi va ko'pgina boshqaruv masalalarini hal qiladi.

DAVLAT BOSHQARUVI - davlat organlarini tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo'lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta'minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo'ladilar. Bu faoliyat ijtimoiy turmushning barcha tarmoqlari - xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalarida va sohalararo tashkil etiladi hamda qonunga asoslangan bo'ladi.

DAVLAT BOSHQARUVI USULLARI - davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi. Ular boshqaruv faoliyatini sifat tomonini belgilab beradi. Shuning uchun ham boshqaruv sifatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan boshqaruv usullarini takomillashtirishga bog'liqdir. Davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida hamda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Keng tarqalgani ma'muriy usullar bo'lib, ular ishontirish va majburlash xarakteriga ega.

DAVLAT BOSHQARUV SHAKLI - davlat hokimiyatining oliy organlarini tashkil etish va tuzilishini, shuningdek, bu organlarning bir biri bilan va aholi bilan bo'lgan munosabatlarini belgilovchi davlat shaklining elementi. Davlat boshqaruv shakliga ko'ra ikkiga bo'linadi: monarxiya va respublika.

DAVLAT BOSHIG'I - inglizcha "head of the state" - oliy davlat lavozimi bo'lib, u ijro hokimiyati sohibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxe. Monarxiyalarda — Buyuk Britaniya, Daniya, Shvesiya, Ispaniya, Yaponiya, Quvayt, Ummon, Saudiya Arabistoni - d.b. monarx (qirol, imperator, podshoh, sulton, amir) bo'lib, uning hokimiyati qoidaga ko'ra hukmron sulola vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o'tkaziladi. Respublikalarda

(Italiya, Fransiya, GFR, AQSh, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) d.b. Prezident bo'lib, u bevosita aholi tomonidan (Meksika, Panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSh, Argentina), yoxud ko'p bosqichli saylovlar(Italiya, GFR, Hindiston) asosida saylanadi.

DAVLAT- bu muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, mahsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy -siyosiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va kelishtirib turadigan siyosiy tashkilotdir.

D. - 1. Zo'ravonlik nazariyasida. Bu nazariya vakillari (Dyuring, Gumplovich, Kautskiy XIX asr) davlatning vujudga kelishiga eng avvalo, harbiy siyosiy omillar ya'ni bir qabilaning ikkinchi qabilani qullikka tortishi sabab bo'lgan deb xisoblaydilar. Bunga ko'ra davlat bosib olingan xalqlarni va hududlarni boshqarish uchun zo'rlov apparata vazifasini o'tagan.

D. - 2. Materialistik (marksistik) nazariyada. Davlat -bu iqtisodiy va siyosiy jihatdan xukmron bo'lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotdir. Bu nazariya vakillari(Marks, Engels, Lenin XIX-XX asrlar)ning fikricha, davlat eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va buning natijasida bir-biriga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Bunda davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo'lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish vositasi sifatida maydonga chiqadi.

D. - 3. Patriarxal nazariyada. Bu nazariya vakillari (Aristotel, Filmer, Genri Men, Mixaylovskiy va boshkalar)ning fikricha, davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Ibtidoiy oilaga ota boshchilik kilib, keyinchalik undan davlat vujudga keladi va ota hokimiyati merosiy bo'ladi.

D. - 4. Tabiiy huquqiy (shartnoma) nazariyasida. Bu nazariya vakillari (Grosiy, Russo, Radimyyev, Gobbs, Lokk, Spinoza XVII-XVIII asrlar)ning fikricha, davlat bu shungacha "tabiiy" ibtidoiy tuzumda yashayotgan kishilarning o'z huquqlarini bir qismini davlatga topshirishlari to'g'risida kelishib olishi asosida shakllangan. Bunda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o'z navbatida ularda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug'iladi.

D. -5. Teologik (ilohiy) nazariyada. Bu nazariya vakillari (Foma Akvinskiy XIII asr, islom mafkurasi va hozirgi kun katolik cherkovi vakillaridan Jan Mariten va boshqalar)ning fikricha, butun olam shu jumladan, davlat va huquqning kelib chiqishi ham xudoning irodasi bilan bog'liq. Podsho va cherkov vakillari xudoning irodasini ifodalovchilardir.

Shuning uchun ham fuqarolar ularning amriga so'zsiz bo'ysunishlari lozim bo'ladi.

DAVLAT KORXONASI - davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tashkil qilingan, o'zlariga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquklarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

DAVLAT MEXANIZMI - bu davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tizimidir.

D. m. -bu davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida davlat hokimiyati amalga oshiriladi va jamiyat ustidan davlatning rahbarligi ta'minlanadi.

DAVLAT MOHIYATI deganda, uning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining kimga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishligi tushuniladi.

DAVLAT ORGANI - bu qonuniy asosda tashkil etiladigan va davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi muayyan vakolatlarga ega bo'ladigan davlat apparatining mustaqil bir bo'g'inidir.

D. o.- bu hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan va davlat tomonidan belgilangan tartibda va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida kompetensiyasini amalga oshiradigan davlat apparatining bir qismidir.

D. o.- bu davlat apparatining alohida tuzilmaga ega bo'lgan nisbatan mustaqil qismi. Davlat organlarini tavsiflovchi quyidagi belgilar mavjud: a) hokimiyat

vakolatiga ega; b) davlat nomidan uning vazifa va funksiyalarini bajaradi; s) muayyan huquq va majburiyatlar majmui-kompetensiyasiga ega; d) muayyan huquqiy mustaqillikka ega; ye) o'z ichki tuzilishiga va tuzilmasiga ega; j) muayyan hududda faoliyat yuritadi; z) o'z vakolati doirasida bajarilishi lozim bo'lg'an huquqiy aktlar chiqaradi; i) qonunda belgilangan tartibda tashkil etiladi; y) uz shaxsiy tarkibi o'rtasida huquqiy aloqalarni o'rnatadi.

Davlat organlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1. Shakllanish usuliga ko'ra: birlamchi va hosilaviy (ikkilamchi); 2. Faoliyat hududiga ko'ra: markaziy va mahalliy; 3. Kompetensiyasi xarakteriga ko'ra: umumiy kompetensiyali va maxsus kompetensiyali; 4. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga ko'ra; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud; 5. Qaror qabul

^ilish tartibiga ko'ra: kollegial va yakka tartibda faoliyat ko'rsatadigan davlat organlari.

DAVLATNING TIPI - muayyan davlatlar guruhiga xos bo'lgan muhim, umumiy belgilar yig'indisidir.

Davlatni tiplarga ajratishda. **formasion va sivilizasion** yondashuvlar mavjud.

Formasion yondashuv - vakillari Marks, Engels, Leninlar bo'lib, bu yondashuv bo'yicha davlatlar ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darajasi, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratiladi. Masalan, quldorlik, feodal, burjua (kapitalistik), sosialistik.

Sivilizasion yondashuv - vakillari Yellinek, Kelzen, Korkunov, Kryuger, Toynbilar. Bunda davlatlar ijtimoiy iqtisodiy tuzumi bilan bir qatorda ko'proq ularning ma'naviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratiladi. Masalan, Qadimgi Sharq, Misr, Xitoy, Hind^ Qadimgi Afina, Qadimgi Rim, O'rta asr davlatlari, hoeirgi zamon davlatlari.

DAVLAT TUZILISHI SHAKLI - davlatning ichki tuzilishi, uning tarkibiy qiyemlarga - ma'muriy-xududiy birliklarga, muxtor siyosiy tuzilmalar yoki suveren davlatlarga bo'linishi. U shuningdek, davlatning hamda uning alohida qismlarining o'zaro nisbati xususiyatini ham aks ettiradi. Davlat tuzilishi shaklining ikki asosiy turi mavjud. Ularning eng oddiy si g *uyitar davlat*. Bu - faqat ma'muriy-hududiy qismlarga bulinadigan yagona davlat tuzilmasi. Unitar davlatda butun mamlakat uchun umumiy bo'lgan davlat hokimiyati va boshkaruvi oliy organlari, yagona sud tizimi faoliyat ko'rsatadi, yagona konstitusiya amal qiladi. Masalan, Angliya, Fransiya, Italiya, Vengriya, Chexiya unitar davlatlardir. *Federasiya* davlat tuzilishining ancha murakkab shakli hisoblanadi. Federativ davlat bir kancha davlatlardan yoki federasiya a'zosi (subyektlari) bo'lgan davlat tuzilmalari (shtatlar, kantonlar, ittifoqdosh yoki avtonom respublikalar va b.)dan tarkib topadi. Ularning har biri o'z ma'muriy-xududiy bo'linishiga ega. Butun federasiya uchun umumiy davlat HOKIMIYaTI va boshkaruvi organlari bilan bir qatorda, har bir federasiya subyektining hududida o'z davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy va mahalliy organlari faoliyat ko'rsatadi. Federasiya a'zolari (subyektlari) o'z sud va bonda organlariga ham ega bo'ladi, o'z konstitusiyasi va qonunlarini qabul kiladi. *Konfederasiya* nisbatan kam tarqalgan davlat tuzilishi shaklidir. Konfederasiya davlatlar birlashmasi yoki ittifoqi bo'lib, uni tashkil etuvchi davlatlar o'z

mustaqilligini to'la saqlab qoladilar, o'z hokimiyat, boshqaruv va adliya organlariga eg'a bo'ladilar, o'z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun konfederasiyaga a'zo davlatlar qo'shma organlar tuzadilar. Mazkur organlar qat'iy belgilangan sohalarda faoliyat ko'rsatadi va muayyan (yqtiyeodiy, siyosiy, harbiy va b.) maqsadlarni ko'zlaydi. Konfederasiyaga ba'zan davlatlarning federasiyata birlashish sari tutgan yo'lidagi oraliq bo'g'in deb ham qaraladi. Hozirgi vaqtda rasmiy - yuridik jihatdan Shveysariya konfederasiya hisoblanadi. Lekin amalda u federasiyadir.

DAVLAT FUNKSIYALARI - davlatning maksad va vazifalarini amalga oshirishga karatilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo'nalishlari.

Davlat funksiyalarini quyidagicha tasniflashimiz **mumkin: 1**. Faoliyat doirasiga ko'ra: ichki va tashqi; 2. Faoliyat muddatiga ko'ra: doimiy va vaktinchalik; 3. Ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra: asosiy va asosiy bo'lmagan; 4. Amalga oshirishning huquqiy shakllariga ko'ra: huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish va sud.

Hozirgi zamon davlatlarining quyidagi ichki funksiyalari mavjud:

1-Iktisodiy. Davlat byudjetini shakllantirish va uning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish; mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy dasturlarini belgilash; iktisodiyotning muhim sohaslarini rivojlanishini rag'batlantirish; tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish va boshkalar.

2- Ijtimoiy. Jamiyatning ijtimoiy muhofazaga muhtoj a'zolariga yordam berish; sog'liqni saqlash, ta'lim, uy joy, yo'l qurilishi, aloqa va boshqa ijtimoiy sohalarni ta'minlash.

3- Moliyaviy nazorat. Ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini aniqlash va hisobga olish hamda ularning bir qismini ijtimoiy va umumdavlat ehtiyojparini qondirish uchun davlat byudjetiga yuborish; davlat byudjetining ijrosini nazorat qilish

4- Huquq tartibotni ta'minlash. Ijtimoiy munosabatlarning barcha qatnashchilarining krunchilik ko'rsatmalarini to'la va aniq bajarishlarini ta'minlash.

5- Egalogik. Tabiiy hayot muhiti - yer, yer osti, suv, hayvonot olami, atmosfera havosi hamda tovar - moddiy qimmatliklar, o'rmonni kesishdan olingan yog'och, yer ostidan olingan foydali qazilmalar va boshkapardan iborat tabiatni muhofaza qilish; jamiyatda ekologiya sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni mavjud huquq normalari asosida

bo'lishligini ta'minlash; ekologik boshqaruv, ekologik ta'lim- tarbiyani shakllantirish.

Hozirgi zamon davlatlarining asosiy. tashqi funksiyalarini esa quyidagicha tasniflashimiz mumkin: a) boshqa davlatlar iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy texnik, ekologik, harbiy va boshqa sohalar yuzasidan hamkorlik; b) mudofaa va boshqalar.

DAVLAT HOKIMIYATI - bu davlat majburlov kuchiga tayanadigan, subyektlar o'rtasida hukmronlik va tobelikka asoslanadigan ommaviy-siyosiy munosabatlardir. Davlat hokimiyatini xarakterlovchi quyidagi belgilari mavjud: a) hokimiyat butun jamiyat miqyosida tadbiriq etiladi; b) hokimiyat ommaviy-siyosiy xarakterga ega; v) davlatning majburlov kuchiga tayanadi; r) hokimiyat maxsus shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

DAVLAT HOKIMIYATINI TAQSIMLANISH TAMOIYILI -davlat hokimiyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga taqsimlanishi (bo'linishi)dir.

D. h. vakolatining taqsimlanishi - uchala hokimiyatning muvozanatini, tengligini hamda ularning o'zaro bir-birini tiyib turishini va qarama-qarshi ta'sir etishini ta'minlovchi tizim.

DUALISTIK MONARXIYA - konstitusiyaviy monarxiyaning parlamentar monarxiya bilan birga ikki turidan biri bo'lib, absolyut monarxiyadan parlamentar monarxiyaga o'tishning shakli hisoblanadi. Dualistik monarxiyada monarx hokimiyati konstitusiya bilan cheklanadi, ammo monarx ham rasman (ya'ni konstitusiyavii normalar tufayli), ham aslida ko'proq (demokratiya institutlarining zaifligi, yaxshi

rivojlanmaganligi tufayli) keng hokimiyat vakolatlarini saqlab qoladi, u monarxi shu davlat siyosiy tizimining markaziga qo'yadi. Masalan, dualistik monarxiyada hukumat rasman ikki karra ham monarx, ham parlament oldida javobgar bo'ladi, ammo aslida qoidaga ko'ra monarx irodasiga bo'ysunadi. Hozirgi kunda dualistik monarxiya Marokash, Iordaniya, Tailand, Nepal, Malayziyada saklangan.

Mustaqil ishlar mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar

№	Mustaqil ta'lim mavzusi	Mustaqil ta'lim mazmuni	Mustaqil ta'lim shakli	Mustaqil ta'lim hajmi	Soat
1 semestr					46
1.	Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari	Davlat va huquq nazariyasi fani predmetining o'ziga xos xususiyatlari; Davlat va huquq tadqiqot obyekti sifatida; Obyektlar dualizmi va predmetning yagonaligi.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet (A-4, 14 shrift 1,5 interval)	1,27
2.	Davlat va huquqni o'rganishning umumilmiy metodlari	Metod tushunchasi; Umumilmiy metodlar tushunchasi; Tarixiy materializm; Dialektika, obyektivlik, tizimlilik va boshqalar	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
3.	Yuridik fanlar tizimida davlat va huquq nazariyasi	Davlat va huquq nazariyasi va uning yuridik fanlar tizimidagi ahamiyati; Nazariy-fundamental fanlar, sohalararo va amaliy-yuridik fanlar.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
4.	Jamiyat, davlat va huquq	Jamiyat tushunchasi; Quldorlik jamiyatining xususiyatlari; Davlat va jamiyat tushunchasi nisbati; Quldorlik jamiyatida huquq.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
5.	Jamiiyat siyosiy tizimining tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	Jamiyat siyosiy tizimi tushunchasi va tarkibi; Ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlarining jamiyat siyosiy tizimidagi roli.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
6.	Davlatni tushunish va ta'riflashda ko'pfikrlilik	Davlatni tushunishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar; Davlatni tushunishdagi	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali	15 bet	1,27

		ko'pfikrlilikni sababi va qonuniyatlari va bu boradagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari.	vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash		
7.	Davlat va huquqning o'zaro nisbati	Davlat va huquqning o'zaro nisbati borasidagi libertar yuridik nazariya; Huquqning davlatga nisbatan birlamichligi; Huquq va siyosatning o'zaro nisbati.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
8.	Davlatning mohiyati to'risidagi nazariyalar	Ijtimoiy shartnoma, elitar, umumfarovonlik, plyuralistik demokratiya, huquqiy davlat, texnokratik nazariyalar	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
9.	Davlatning asosiy belgilari	Majburlov apparati; Davlatning ijtimoiy xarakteri; davlatning hududiy elementi; Davlat suvereniteti.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
10.	Davlatni tushunishning zamonaviy konsepsiyalari	Davlatning sosiologik, libertar yuridik, legistik konsepsiyalari; Jamiyatni liberallashtirish sharoitida davlatning libertar yuridik konsepsiyasi	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
11.	Davlat tipologiyasiga formasiyaviy yondashuv	Davlat tipi tushunchasi; Davlat tipologiyasining mezonlari; Quldorlik davlati; Feodal davlat; Kapitalistik davlat; Sosialistik davlat.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
12.	Davlat tipologiyasiga sivilizasiyaviy yondashuv	Davlat tipi tushunchasi; Davlat tipologiyasining umumiy mezonlari; Iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi; An'anaviy jamiyat;	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash,	15 bet	1,27

		Postindustrial jamiyat;	ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash		
13.	Davlat funksiyalari tushunchasi va turlari	Davlat funksiyalari tushunchasi va ularning klassifikatsiyasi; Davlatning ichki va tashqi funksiyalari; Asosiy va asosiy bo'lmagan funksiyalar; Davlat funksiyalari va vazifalarining o'zaro nisbati.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
14.	Davlat shakllari tushunchasi va uning asosiy elementlari	Davlat shakli tushunchasi; Boshqaruv shakli, hududiy tuzilish, siyosiy rejim davlat shaklining asosiy elementlari sifatida.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
15.	Hokimiyatlar bo'linishi tarixi va nazariyasi	Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixida hokimiyatlar bo'linish nazariyasi; Sh.L.Monteskye – hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining asoschisi; Hokimiyatlarning personal, funksional va institusional bo'linishi.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
16.	Davlat organlari tizimi va tasnifi tushunchasi	Davlat organlari tushunchasi; Shakllanish usuliga ko'ra birlamchi va hosilaviy, hududga ko'ra: markaziy va mahalliy, vakolat xarakteriga ko'ra: umumiy va maxsus kompetensiyali, Hokimiyatlar bo'linish prinsipiga ko'ra: qonunchilik, ijro va sud, qaror qabul qilish tartibiga ko'ra: kollegial va yakka tartibda.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
17.	Davlatning tuzilish shakllari	Davlat tuzilish shakli tushunchasi va asosiy elementlari; Federasiya tushunchasi va uning asosiy belgilari; Konfederasiya; Unitar davlat va uning o'ziga xos xususiyatlari.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
18.	G'ayridemokratik siyosiy rejim va uning turlari	G'ayridemokratik siyosiy rejim tushunchasi va uning turlari; Totalitar rejim; Avtoritar rejim; Mustabid	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali	15 bet	1,27

		rejim; Diktatura; Fashistik rejim.	vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash		
19.	Davlat organlari tizimi va tasnifi tushunchasi	Davlat organlari tushunchasi; Shakllanish usuliga ko'ra birlamchi va hosilaviy, hududga ko'ra: markaziy va mahalliy, vakolat xarakteriga ko'ra: umumiy va maxsus kompetensiyali, Hokimiyatlar bo'linish prinsipiga ko'ra: qonunchilik, ijro va sud, qaror qabul qilish tartibiga ko'ra: kollegial va yakka tartibda.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
20.	O'zbekistonda davlat hokimiyatini amalga oshirishning huquqiy shakllari	Hokimiyatlar bo'linish tamoyili tushunchasi; O'zbekistonda hokimiyatning amalga oshirishda mamlakat aholisining manfaatlarini himoya qilish, qonuniylik, demokratizm, professionalizm, oshkoralik, hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi prinsiplari.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
21.	Hozirgi zamon asosiy huquqni tushunish konsepsiyalari	Huquqni tushunish tipologiyasi; Huquqning normativ, tabiiy huquqiy, sosiologik, integrativ va libertar konsepsiyalari.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
22.	Huquq tushunchasi va uning ijtimoiy qiymati	Ijtimoiy normalar tizimida huquq; Huquq tushunchasi va mohiyati; Huquqning belgilari; Huquqning ijtimoiy vazifasi.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
23.	Huquq haqidagi nazariyalar	Huquq haqidagi nazariyalar va ularning huquqni tushunish muammosini hal qilishdagi roli; Normativ huquq nazariyasi, sosiologik, psixologik, tabiiy-huquqiy, integrativ, kommunikativ, tarixiy-huquq maktabi nazariyalari.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27

24.	Huquqiy ong: tushunchasi, tarkibi, turilari va funksiyalari	Huquqiy ong tushunchasi; Huquqiy psixologiya va mafkura; Individual huquqiy ong, jamoatchilik huquqiy ong, oddiy huquqiy ong, ilmiy huquqiy ong va professional huquqiy ong; Huquqiy ong va huquqiy madaniyat.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
25.	Huquqiy madaniyat tushunchasi va mazmuni	Huquqni bilish, huquqqa munosabat, huquqqa rioya qilishga odatlanish, huquqiy faollik huquqiy madaniyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida; Huquqiy madaniyatning subyektiv tarkibi: individual guruhiy jamoatchilik; Huquqiy madaniyat darajasi: oddiy, professional va nazariy.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
26.	Huquqiy nigilizm, uning sabablari va oqibatlari	Ijtimoiy nigilizm tushunchasi; Huquqiy nigilizm – nigilizmning bir ko'rinishi sifatida; Huquqiy nigilizmning nazariy, amaliy shakllari; Faol huquqiy nigilizm va sust huquqiy nigilizm; Huquqiy nigilizmni bartaraf etish muammolari.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
27.	Huquq normalarining mantiqiy tuzilishi	Huquq normasi tushunchasi va turlari; gipoteza, dispozisiya va sanksiya; Dispozisiyaning imperativ, nisbiy belgilangan blanket, tavsiflovchi kabi belgilari; Nisbiy aniq, mutloq aniq va muqobil sanksiya.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
28.	Huquq ijodkorligi – huquq yaratishning murakkab jarayoni sifatida.	Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va tamoyillari; Bevosita huquq ijodkorligi(umumxalq referendumi); Davlat organlarining huquq ijodkorligi(Oliy Majlis, vazirliklar va boshqa); Alohida mansabdorlarning huquq ijodkorligi(Prezident, vazirlar, hokimlar); Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquq ijodkorligi.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
29.	«Davlat va huquq	“Davlat va huquq nazariya”si	Referat, sxemalar va	15 bet	1,27

	nazariya»si fani ijtimoiy fanlar tizimida	fanining iqtisodiy fanlar, falsafa, sosiologiya fanlari bilan bog'liqligi	testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash		
30.	“Davlat va huquq nazariya”si fanining maxsus metodlari	Metod tushunchasi; sosiologik, qiyoslash, statistik, mantiqiy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, huquqiy modellashtirish va boshqa metodlar.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
31.	Davlatning vujudga kelishi haqidagi asosiy nazariyalar	Teologik nazariyasi(F.Akvinskiy, J.Mariten va b.), Patriarxal nazariyasi(Aristotel, Filme), Ijtimoiy shartnoma nazariyasi(G.Grosiy, J.J.Russo, A.Radiomyev, Gobs, Lokk, Spinoza), Materialistik nazariyasi(Marks, engels, Lenin), Zo'ravonlik nazariyasi(Dyuring, Gumplovich, Kautskiy)	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
32.	Huquqiy tarbiya va uning huquqiy madaniyatni yuksaldirishdagi roli	Huquqiy tarbiya tushunchasi; Huquqiy tarbiya vositalari; Huquqiy targ'ibot; Huquqiy ta'lim; Yuridik amaliyot; O'zini-o'zi tarbiyalash va b.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
33.	Hozirgi zamon davlatlarining asosiy tashqi funksiyalari	Boshqa davlatlar bilan hamkorlik: iqtisodiy, siyosiy, madaniy, harbiy, ilmiy, ekologik; Mudofaa funksiyasi: mamlakatni tashqi tajovuzdan mudofaa qilish, davlat chegaralarini qo'riqlash.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
34.	O'zbekiston Respublikasida davlat apparati	O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi(Qonunchilik hokimiyati organi); ijro etuvchi hokimiyat organlari: hukumat, bosh vazir, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va hokimlar; Sud hokimiyati organlari: O'z.R.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27

		Konstitusiyaviy sudi, O'z.R. Oliy sudi, O'z.R. Oliy Xo'jalik sudi; Prokuratura organlari.			
35.	Huquq funksiyalari	Huquqning maxsus yuridik funksiyalari: tartibga soluvchi va qo'riqlovchi; Umumijtimoiy funksiyalar: iqtisodiy, siyosiy, tarbiyaviy, ekologik va b.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27
36.	Ikki palatali parlament sharoitida O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirish	Normativ huquqiy hujjatlarni tizimlash tushunchasi: inkorporasiya, kodifikasiya va konsolidasiya; Rasmiy va norasmiy inkorporasiya.	Referat, sxemalar va testlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash	15 bet	1,27

Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Talabalarning “Davlat va huquq nazariyasi” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublaridan, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, aqliy xujum, debat, davra suxbatlarini o'tkazish, kollokviumlar, muammoli o'qitish, texnik vositalarni qo'llash, yuridik klinika va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan hamda (yechimlar daraxti, ishbilarmon o'yini, debatlar va h.k.) zamonaviy informasion texnologiyalardan (internet saytlari, darslik va qo'llanmalarining elektron shakllari) foydalaniladi.

O'quv uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 394 b.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 413 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 525 b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 439 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 432 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 400 b.
13. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – 448 b.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T. 14. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 320 b.
16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 368 b.
17. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 48 b.
18. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. – Toshkent: O'zbekiston,

2007. –48 b.

19. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. –174 b.
20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
21. Karimov I.A. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009. -24 b.
22. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. –T.: O'zbekiston, 2009. -280 b.
23. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
24. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir / I.A.Karimov. –Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 80 b.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdulayev M.I. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik.-SPb.: Piter, 2003. -397 s.
2. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.- 528 b.
3. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik. Izd. Norma. M.: 2002. 616 s.
4. Axmedshayeva M., Najimov M. Huquq nima? T.:TDYuI,2003.-35 b.
5. Axmedshayeva M., Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo'linishi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYuI, 2005 - 66b.
6. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. I-jild. Davlat nazariyasi. -T.: Adolat, 2001. –336 b.
7. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. II-jild. Huquq nazariyasi. -T.: Adolat, 2001. –560 b.
8. Saburov N. Qonunga itoatkor shaxs (shaxsiy va ijtimoiy-huquqiy fazilatlar). T.:TDYuI, 2003.-60 b.
9. Saburov N. Davlat va huquq nazariyasi (savollar, ta'riflar, tushuncha va atamalar). –T.: TDYuI, 2005. -95 b.
10. Islomov Z.M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalar. (Davlat nazariyasi). – T.: Adolat, 2000. –272 b.
11. Islomov Z.M., To'rayev B. R. Huquq va iqtisodiyot. Risola. T. 2006. 1,6 b.t.
12. Ergeshova D.Q., Najimov M.K. “Yuridik konfliktologiya”. O'quv qo'llanma. T.: TDYuI. 2005. – 128 b.
13. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. –916 b.
14. Najimov M. K. Davlat va uning ekologik funksiyasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. -34 b.
15. Najimov M.K. Davlatning ekologik funksiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI, 2006. –6,2 b.t.
16. Grigonis E.P. Teoriya gosudarstva i prava: Kurs leksiy.-SPb.: Piter, 2002. -320 s.

17. Obshchaya teoriya gosudarstva i prava: Akademicheskii kurs v 2-x tomax. Pod red. M.N. Marchenko. Tom 2. Teoriya prava. -M.: Zersalo, 1998. –640 s
18. Grigonis E.P. Teoriya gosudarstva i prava: Kurs leksiy.-SPb.: Piter, 2002. -320 s.
19. Obshchaya teoriya gosudarstva i prava: Akademicheskii kurs v 2-x tomax.Pod red. M.N. Marchenko. Tom 2. Teoriya prava. -M.: Zersalo, 1998. –640 s.
20. Marchenko M.N. Teoriya gosudarstva i prava. Uchebnik. - M.: OOO “TK Velbi”, 2004. – 640 s.
21. Teoriya gosudarstva i prava. Pod.red. A.S.Pigolkina. M.”Yurayt-Izdat”. 2006.- 613.
22. Hayitboyev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. –T.: TDYuI, 2008. -242 b.
23. N.Saburov Davlat va huquq nazariyasi. O`quv-uslubiy qo`llanma. -T.: TDYI, 2008. –108 b.
24. M.K.Najimov, Z.S.Muhitdinov Davlat va huquq nazariyasi. O`quv-uslubiy qo`llanma. - T.: TDYI, 2009. - 172 b.
25. N.Saburov, M.K.Najimov Davlat va huquq nazariyasi. Nazorat shakllari bo'yicha sinovga tayyorgarlik ko'rish uchun o'quv-uslubiy qo`llanma. - T.:TDYuI,2009. –150 b.
26. M.K.Najimov, I.V.Kudryavsev Teoriya gosudarstva i prava. Uchebno-metodicheskoye posobiye. -T.: TGYuI, 2006. - 242 s.
27. X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Prof.X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. –T.: Sharq, 2009. –592 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Agzamxodjayev A. Правовые основы gosudarstvennoy nezavisimosti Respubliki Uzbekistan. / Otv.red. A.X.Saidov. -T.: Uzbekistan, 1993. -93 s.
2. Alekseyev S.S. Izbrannoye: nauka prava, obshchesosialnyye problemy, publisistika.-M.:Statut, 2003.-480 s.
3. Qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan ijro hokimiyati o'zaro munosabati. // J. TDYuI Axborotnomasi. – 2006. – №2. -B. 10-13.
4. Boltayev A.R., Yuldasheva Z.A. Konsepsiya razdeleniya vlastey i yeye vozdeystviye na reformirovaniye vysshix organov vlasti Uzbekistana. – T.: TGYuI, 2002. –32 s.
5. Islomov Z.M. Xalqaro huquq va milliy huquqiy tizim o'zaro nisbatining tarixiy-huquqiy ilmiy nazariy jihatlarini //Axborotnoma. -2006. -№5- B.130-137
6. Islomov Z.M. Ukrepleniye zakonodatelnoy bazy strany //Axborotnoma. -2006. -№2- B.3-10.
7. Knipper R., Nazaryan V. Ocherki k probleme zakonodatelnoy texniki. - Eshborn, 1999. -62
8. Saburov N. Mustaqillik yillarida Parlament faoliyatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari // TDYuI Axborotnomasi. -№4. –2006. –B. 56-59.
9. Muxitdinov Z.S. Parlament nazorati-mamlakatni modernizatsiya va isloh

etishning muhim shartidir // Konstitutsiya-davlat va jamiyat qurilishi islohotlarining asosi” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –T.: TDYuI nashriyoti. 2006. – B. 225-228.

- Muxitdinov Z.S. Davlat hokimiyati organlari faoliyatini parlament tomonidan nazorat qilishning ayrim masalalari // O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2-to'plam. -T.: TDYuI nashriyoti. 2007. – B. 127-133.
11. M.A.Utemuratov, Muxitdinov Z.S. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning Konstitutsiyaviy huquqiy asoslari // Inson, jamiyat va davlat manfaatlari aks etgan qonun mavzusidagi ilmiy-anjuman materiallari. –T.: TDYuI nashriyoti, 2007.– B. 225-232.
12. Muxitdinov Z.S. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan parlament nazorati (nazariy-huquqiy masalalar) // J. Fan va yoshlar. –2008. –№ 3. –B. 62-64.
13. Muxitdinov Z.S. Inson huquqlarini ta'minlashda parlament nazoratining o'rni. Ilmiy risola. –T.: TDYuI, 2008. –76 b.
14. Muxitdinov Z.S. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida inson huquqlarini ta'minlashda parlament nazoratining o'rni // Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: TDYuI, 2008. –B. 125-131.
15. Ergeshova D.Q. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining funksional vazifalari. // J. TDYuI Axborotnomasi. – 2006. – 3-son. – 1.1.b.t.
16. G'ulomova S. Sud-huquq tizimini liberallashtirish masalalari. T.: «Fan va texnologiya», 2006. – 160 b.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.tsil.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.lawbook.ru>

Mundarija

Fanning o'quv dasturi.....	3
1-mavzu. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fundamental fan.....	5
2-mavzu. Davlat va huquqning kelib chiqishi.....	9
3-mavzu. Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari..	12
4-mavzu. Davlat funksiyalari.....	15
5-mavzu. Davlatning shakllari.....	19
6-mavzu. Davlat mexanizmi.....	24
Testlar.....	33
Nazorat savollari.....	39
Asosiy tushuncha va atamalar.....	42
Mustaqil ishlar mavzulari.....	52
Adabiyotlar ro'yxati.....	59

